O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI

MUSIQIY TA'LIM KAFERDRASI

BALTAYEVA GAVXARJON IBRAGIMOVNA

5111100 – Musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha
(shifri va ta'lim yo'nalishi nomi)
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: UMUMTA'LIM MAKTABLARI 7-SINFIDA XOJI ABDULAZIZ ABDURASULOVNING HAYOTI VA IJODI BILAN TANISHTIRISH USLUBLARI

ILMIY RAHBAR: KATTA O'QITUVCHI
BOLTAEV RUSTAM

URGANCH 2015-yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN’AT FAKULTETI
MUSIQA TA’LIMI KAFEDRASI

“UMUMTA’LIM MAKTABLARI 7-SINFIDA XOJI ABDULAZIZ ABDURASULOVNING HAYOTI VA IJODI BILAN TANISHTIRISH USLUBLARI”

BAJARUVCHI: BALTAYEVA GAVXARJON IBRAGIMOVNA

RAHBAR: KATTA O‘QITUVCHI BOLTAEV RUSTAM

URGANCH - 2015-YIL

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH
BO'YICHA TOPSHIRIQLAR

REJASI:

Tolibasi: Baltayeva Gavxarjon Ibragimovna

Universitet rektorining "_____" - sonli _____ buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun "Umumta'lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish uslublari" mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan katta o'qituvchi Boltaev Rustam Qurbonboevich bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: kirish, ikki bob, besh qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar: Karimov I.A Ma'naviy yuksalish yo'lida T.1992, Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat T.1994, Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008, Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari to'plami T. 2006, Abdullaev R. O'zbek mumtoz musiqasi T.2008, Axmadxo'jaev A. "O'zbek xalq ijodi", Ibroximov O. "Musiqa ijodiyoti masalalari", Mallaev N. M "O'zbek adabiyoti tarixi", Mamirov K.A. "Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi", Matyoqubov O. Maqomat T.2004, Matyokubov B. "Doston navolari", Mannopov S. "O'zbek xalq musiqa madaniyati", Ibragimov O., Sadirov J. Musiqa 7-sinf uchun darslik, Qilichev T. "Xorazm xalq teatri", Yunusov O. "O'zbek xalq musiqa ijodi" 1- 2-qism kabilardandan olinadi.

5. Bitiruv malakaviy ishga prezentatsiya, nota misollari va rasmlar ilova qilinadi

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH JADVALI

№	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1	Mavzuni kafedrada tasdiqlatish	2014-yil. oktabr
2	Bitiruv-malakaviy ishini yozish nizomi bilan tanishish.	2014- yil. dekabr
3	Mavzu bo'yicha manba yig'ish, tegishli nazariy adabiyotlarni o'rganish	2015-yil. yanvar
4	O'rganilgan adabiyotlarni tahlil qilish.	2015- yil. yanvar
5	Yig'ilgan materiallarni sistemalashtirish.	2015- yil. fevral
6	Tanlangan mavzuni tadqiq qilishning ilmiy tahlil metodlarini o'rganish	2015- yil. fevral
7	To'plangan materiallar asosida ishni kirish qismini yozish	2015- yil. mart
8	Ishni birinchi bobini yozish	2015- yil. mart
9	Ishning ikkinchi bobini yozish	2015- yil. aprel
10	Ishning xulosa qismini yozish	2015- yil. aprel
11	Adabiyotlar ro'yxatini yozish	2015- yil .aprel
12	Ishni rahbarga tahririyat uchun taqdim qilish	2015- yil. may
13	Ishning dastlabki himoyasi	2015- yil. may

Bitiruv malakaviy ish rahbari: katta O'qituvchi Boltaev Rustam Qurbonboyevich

Bajaruvchi talaba: Baltayeva Gavxarjon Ibragimovna

2014 yil "5" sentyabr Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014 yil tasdiqlandi ("5.09" 2 - sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: katta o'qituvchi Nurmatova M. A

BITIRUV MALAKAVIY ISh BO‘YIChA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Baltayeva Gavxarjon Ibragimovna

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: Umumta’lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish uslublari

Bitiruv malakaviy ish hajmi: kirish, ikki bob, xulosa va foydalangan adabiyotlardan iborat.

Tushuntirish qismi: 8 bet

Ilovalar soni: 11 ta

Mavzuning dolzarbligi: Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma’naviy boyligimizga bo‘lgan e’tibor davlat miqyosiga ko‘tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada Sharq allomalarining risolalari, o‘tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma’naviy boyligimiz asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Umumta'lim maktablari 7-sinfi 3-chorakda Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan tanishish va buning asosida umumiy tushunchaga ega bo‘lishi nazarda tutilgan.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi Baltayeva Gavxarjon Ibragimovnananing umumkasbiy va maxsus tayyorgarligi yaxshi. Mavzuga doir adabiyotlardan o‘rinli foydalangani bitiruv malakaviy ishida o‘z aksini topgan.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: Ishda bitiruvchi ilmiy etika talablariga rioya etganki, bu uning ilmga jiddiy e’tibor bilan qaraganidan dalolat beradi. Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati yaxshi, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati yuqori. Baltayeva Gavxarjon tirishqoq, o‘ziga talabchan va nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladi, bilim, malaka va ko‘nikmalarini doimo oshirib boradi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari: O‘zbek mumtoz musiqasida Xoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi musiqashunos olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilib kelinganligi asoslab berildi. Umumta’lim maktablari musiqa madaniyati mashg‘ulotlari jarayonida O‘zbek mumtoz musiqasining nazariy masalalari Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog‘iy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi ulkan olimlar asarlari musiqa ilmining poydevorini tashkil qilib, musiqaning yuzaga kelishi, uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, tarixiy shakllari, ijrochilik va ta’lim masalalari hamda ular negizida Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijod qilgan ashulalar, lad va usul tuzilmalarining tarkib topish qonun-qoidalari batafsil yoritilib, pedagogik texnologiyasidan foydalanishning metodik ta’minoti yaratildi. Umumta’lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirish uslublari metodikasi ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishga qo‘yilgan talablarning bajarilishi darajasi: Ish bitiruv malakaviy ishga qo‘yiladigan talablarga to‘la javob berdi. Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Bitiruv malakaviy ish rahbari: Boltayev R.Q.

2015 yil “16” iyun

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT
FAKULTETI MUSIQIY TA'LIM KAFEDRASI
5111100 – Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi
Baltayeva Gavxarjon Ibragimovnaning
Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: "Umumta'lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Rasulovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish uslublari"

Malakaviy ishning hajmi 10426 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 8 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: 11

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada Sharq allomalarining risolalari, o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Umumta'lim maktablari 7-sinfi 3-chorakda Xoji Abdulaziz Rasulovning hayoti va ijodi bilan tanishish va buning asosida umumiy tushunchaga ega bo'lishi nazarda tutilgan.

Bitiruv malakaviy ishning "Kirish" qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Tadqiqotning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi o'rganilishi, maqsad va vazifalarining, ob'ekti va predmeti, ilmiy yangiligi kabi masalalar o'z echimini topgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar: Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi Bitiruv malakaviy ishda ilmiy manbalardan o'rinli foydalanilgan. Asosan, 2000 yildan keyingi ilmiy-nazariy badiiy adabiyotlar tadqiqot

ishining asosini tashkil etgan. Ishda keyingi davrdagi ilmiy tadqiqot ishlaridan internet ma'lumotlaridan unumli foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ish ravon ilmiy uslubda yozilgan bo'lib, unda uslubiy, imloviy xatolar deyarli uchramaydi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari bitiruv malakaviy ishda mustaqil mutolaani tashkil etishda ta'lim metodlari o'quv metodlarini chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinib, ta'lim tarbiya jabhasida yutuqlarga erishishi izchil tahlil etilgan. Tadqiqot ishi natijalaridan umumta'lim maktablarida unumli foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar: Ishda umumta'lim maktablarida interaktiv metodlarni, pedagogic va innavatsion texnikalogiyalardan foydalanib texnik vositalar yoradamida dars o'tilsa, ish samaradorligi yanada oshardi.

Такризчи: Р.Рахимов
11-сон БМСМ директори

2015 yil "16" iyun

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI DAK TOMONIDAN BAHOLASH MEZONLARI

№	Baholanadigan boʻlimlar	Eng yuqori koʻrsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi boʻyicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e’tiborga olingan holda baholash mezonlariga oʻzgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi Baltayeva Gavxarjon Ibragimovnaning "Umumta'lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish uslublari" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning "17" 2015 yil "iyun" dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestattsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	6
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	30
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	6
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	6
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	6
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	4
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	6
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	5
	Jami:	100	69

Davlat attestattsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. "Umumta'lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish uslublari" mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 69 lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va "O'rta" deb baholansin.

2. _____

_____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2015 yil "17" iyun

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrasi

Bitiruv malakaviy ish 29 sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi Baltayeva Gavxarjon Ibragimovna

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi "Umumta'lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish uslublari"

Ilmiy rahbar (maslahatchi)ning ismi-sharifi Boltaev Rustam Qurbonboyevich

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil "28" may da o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Urganch tuman 11-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori Raximov R. tayinlandi.

Kafedra mudiri: katta o'qituvchi Nurmatova M. A.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani: dots. Ishmuratov M.J..

"Tasdiqlayman"
fakultet dekani _____ K.S. Niyazov
"9" dekabr 2014 y.

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI 5111100 – MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI
BAKALAVR BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Baltayeva Gavxarjon Ibragimovna

1. Ishning mavzusi: "Umumta'lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish uslublari"

"13" dekabr 2014 yil universitet rektorining 211-TŞ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: "28" may 2015 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati

a) I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch T.2008
b) DTS va o'quv dasturi 6, 7-maxsus son
v) Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari to'plami T. 2006
g) Abdullaev R. O'zbek mumtoz musiqasi T.2008
d) Ibraximov O.Sadirov J. Musiqa 7-sirf uchun darslik T.2008
e) Yunusov O. O'zbek xalq musiqa ijodi I-qism T.1994

4. Ishning maqsadi Umumta'lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish

5. Chizma materiallar ro'yxati: yo'q

6. Maslahatchilar: yo'q

Bo‘limlar	Ilmiy rahbar (Maslahatchi) F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
I-Bob O‘zbek xalq musiqa ijodida musiqiy janrlarni tarixiy Shakllanishi	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	23.10.2014	30.10.2014
1.1 O‘zbek xalq musiqa ijodiga mansub musiqiy janrlar va ularning tarixiy shakllanishi	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	05.11.2014	26.11.2014
1.2 Ta'lim jarayonida milliy musiqa merosimizni amaliy o‘zlashtirish	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	03.12.2014	24.12.2014
1.3 Maxalliy uslublarga xos o‘zbek xalq musiqa ijodini o‘rganish usullari	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	05.01.2015	24.01.2015
II-Bob Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirish uslublari	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	21.01.2015	02.02.2015
2.1 Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida Xoji Abdulaziz Abdurasulov xayoti va ijodi bilan tanishtirish	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	28.01.2015	23.02.2015
2.2 Pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi bilan tanishtirish uslublari	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	07.03.2015	29.03.2015
Xulosa, kirish	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	04.04.2015	03.05.2015

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni: Raximov R.

Urganch tuman 11-son bolalar musiqa va san’at maktabi direktori

7. Ilmiy rahbar: Boltaev Rustam Qurbonboyevich

BMI bajaruvchi talaba: Baltayeva Gavxarjon Ibragimovna

Kafedra mudiri: Nurmatova Maya Abdullayevna

MUNDARIJA

Kirish……..3-11
I-Bob O’zbek xalq musiqa ijodida musiqiy janrlarni tarixiy Shakllanishi
1.1 O’zbek xalq musiqa ijodiga mansub musiqiy janrlar va ularning tarixiy shakllanishi……11-17
1.2 Ta’lim jarayonida maxalliy uslublarga xos o’zbek xalq musiqa ijodini o’rganish……18-28
II-Bob Umumta’lim maktablari musiqa madaniyati darslarida Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirish uslublari
2.1 Umumta’lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida Xoji Abdulaziz Abdurasulov xayoti va ijodi bilan tanishtirish……29-33
2.2 Pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi bilan tanishtirish uslublari…….33-46
Umumiy xulosa……...46-48
Foydalangan adabiyotlar…….49-50
Ilova……51-61

KIRISH

O’zbek xalq musiqa me’rosi boy va ulkan ummon kabidir. Musiqiy merosimizdan joy olgan musiqa namunalari asrlar osha ijro etilib, avloddan-avlodga o’tib, sayqallanib kelgan. Xalqimizning bu boy va murakkab musiqiy merosi azaldan ustoz san’atkorlar tomonidan og’zaki uslubda yaratilib, ustozdan shogirdga o’tib, an’ana tarzda ijro etilib bizgacha yetib kelgan.

Xalq musiqa san’ati boy va serqirra deyildi. Albatta, xalqona urf-odatlarga asoslangan musiqiy madaniyat o’z-o’zidan turmush tarziga aylangan va muttasil davom etib kelgan. Ma’naviyat darajasi va uning ravnaqi ijodiyot mahsuli bilan o’lchanadi. Qaerda ijodiyot kerakli me’yorda mavjud ekan, bu jarayon milliy an’analarga asoslanar ekan, u yerda hayotimizga xos va zamonaga mos rivoj bor.

Mumtoz musiqamiz amaliyoti va ravnaqiga nazar solar ekanmiz, biz buyuk madaniyat sohiblari avlodi ekanligimizni ko’ramiz. Yosh avlod vakillari o’tmishda yaratilgan merosni o’qib, ardoqlab, ijro etib, idrok qilib o’zlashtirsalar, zamonaga munosib san’atkor bo’lib yetishishlari mumkin.

Aytish joizki, o’zbek mumtoz musiqa san’ati og’zaki san’atdir. Musiqiy ohangda mavjud har qanday harakat, ya’ni jilo, joziba, g’oya, mazmun qochirim va bezaklar tinglash orqali idrok etilib, o’zlashtiriladi. Ularning ravnaqi yo’lida qilingan har qanday harakat ijodiyot mahsuli demakdir. Shu bois, musiqa azal-azaldan og’zaki tarzda avloddan-avlodga o’tib kelgan. Buni bizda “ustoz-shogird” an’anasi deb ardoqlashadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgach benazir musiqiy merosga bo’lgan munosabat, ularni ta’lim tizimiga joriy qilish ayni muddaodir.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov o’ziga xos ijrochilik uslubi, yorqin ijodiy yo’li orqali o’zbek va tojik kuylarini mohirona ijro etib, O’zbekistonda shuhrat qozongan hofizlardan biriga aylangandi.

Hoji Abdulaziz ajoyib dutorchi va hofiz sifatida ham shuhrat qozongan edi. Uning ajoyib ijro mahorati el arosida keng tarqaldi. Uning ijro qilgan asarlari juda ko'p bo'lib, eslab qolish qobiliyati juda baland edi. Ijrochilik bilan bir qatorda kuchli va shirali ovoz sohibi xonanda ham edi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov Shashmaqomlarning nasr qismidagi ashulalarni o'zbek va tojik tilida ravon ijro qila olgan va o'zi bastalagan "Bozurgoniy", "Guluzorim", "Beboqcha" kabi ashulalar xalq orasida mashhur bo'lib bugunki kunda ham xofizlar repertuaridan joy olgan.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov kabi san'at ijodkorlari yaratgan ashularani ularning ijro uslubini saqlab qolish va targ'ib qilish va yosh san'atkorlarga o'rgatish maqsadida ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. Shuningdek ta'lim tizimida milliy musiqa namoyondalar hayoti va ijodini o'rganish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Bunga e'tibor berilgandan so'ng, ko'p vaqt o'tmay an'anaviy musiqamizni o'zlashtirish, ya'ni xalq ashulalariga, maqomlarga qiziqish yildan-yilga yoshlarimiz orasida ko'payib bormoqda. Umumta'lim maktabi musiqa o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri – xalq ashulalari, qo'shiqlarini ustozdan shogirdga og'zaki an'ana tarzida (lekin, yozma manbalarga ham asoslanib) musiqiy namuna holida tushuncha berishdan iborat.

Buning uchun musiqiy merosimizni ijrochilik an'analarini yaxshi o'zlashtirgan yuqori malakali mutaxassislar, ijrochilarni yetishtirish davrning asosiy vazifalaridan biridir. Odatda, mumtoz ashulalarni, maqomlarni ijro etish xonandalardan juda katta iste'dod va mahorat, keng diapozonga ega bo'lgan ovoz hamda keng nafas yo'liga ega bo'lishni talab qiladi.

Xalqimizning istiqlolga erishishi munosabati bilan azaliy qadriyatlarimizni tiklash, o'z tariximizni, milliy urf-odat va an'analarimizni, ma'naviy va shu jumladan badiiy merosimizni otroflicha o'rganish hamda undan bahramand bo'lish imkoniyati vujudga keldi.

O'zbek xalq musiqa ijodiga xos musiqiy asarlar turlarini ularni ijro etib kelgan mashhur sozanda va xonandalar ijodini umumta'lim maktablarning

musiqa madaniyati darslarida o’rganishdan o’quvchilarni an’analarga boy va badiiy yetuk xalq musiqa ijodi namunalaridan bahramand etish asosiy maqsaddir. Xalq qo’shiqlarini o’rgatish asosida o’tkir did, yuqori badiiy saviya va nafis tuyg’ularni shakllantirishdan iborat.

Yosh avlod madaniyatimiz va ma’naviyatimizni, taraqqiyotning intellektual qadriyatlarini kelajak jamiyat a’zolarining ongiga yetkazadilar. Shu o’rinda yoshlarning ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda milliy musiqamizning roli alohida ahamiyatga ega.Chunki, aynan yoshlarimizning qadriyatlarni saqlab qolishda milliy musiqa san’atining ham o’rni bor. “Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o’rinda turadi. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin eng ezgu yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida san’at turlariga qaraganda ko’proq va kuchliroq ta’sir ko’rsatmoqda”[1].

Ayni vaqtda, ko’p asrlar davomida yashab kelgan ota-bobolarimiz, avlod-ajdodlarimiz ma’naviyatining barkamol ruhiyatining sadolardagi natijasi bo’lgan milliy kuy, qo’shiqlarimiz yosh avlod qalbidan o’rin oladi. Ularni o’z vataniga, xalqiga sadoqatli va mehr-muhabbatli bo’lishi, azaliy qadriyatlarimiz va o’ziga xos betakror an’analarimizni e’zozlashni, ona yurt merosining bugungi kundagi haqqoniy vorislari bo’lishni, milliy istiqlol zaruriyatini teran his etishni tarbiyalaydi.

Musiqa san’atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlod tarbiyalashda ularni barkamol va yetuk inson bo’lib shakllanishlarida o’ziga xos va takrorlanmas manba bo’lib xizmat qiladi.

Barcha o’quv fanlari qatorida musiqiy ta’limda ham davlat ta’lim standartlarining joriy etilishi milliy musiqa meroslardan to’laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq qo’shiqlarida terma, lapar, yalla, mehnat qo’shiqlari mavsumiy oilaviy marosim qo’shiqlari xonanda va sozandalarning

[1] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch T., 2008 141-bet

ijodiy faoliyatlari, maqom dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o’z aksini topdi [2].

Mavzuning dolzarbligi: Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma’naviy boyligimizga bo’lgan e’tibor davlat miqyosiga ko’tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada Sharq allomalarining risolalari, o’tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma’naviy boyligimiz asosiy omil bo’lib xizmat qilmoqda. Umumta’lim maktablari 7-sinfi 3-chorakda Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan tanishish va buning asosida umumiy tushunchaga ega bo’lishi nazarda tutilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov Shashmaqomlarning nasr qismidagi ashulalarni o’zbek va tojik tilida ravon ijro qila olgan va o’zi bastalagan “Bozurgoniy”, “Guluzorim”, “Beboqcha” kabi ashulalar xalq orasida mashhur bo’lib bugunki kunda ham xofizlar repertuaridan joy olgan.

San’at va adabiyot shu jumladan, xalq og’zaki ijodining har bir barkamol asari ma’lum bir tarixiy zamin, iqtisodiy – hayotiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy talablari asosida ijod etiladi va ommalashadi.

O’zbek xalq og’zaki ijodi shu jumladan, xalq qo’shiqlari va ularning turlari uzoq davrlar davomida shakllangan bo’lib, ular xalqimizning turli sharoitlaridagi turfa marosimlar va boshqa shu kabi jarayonlar bilan uzviy bog’liq. Ular o’z zamonasini ijodiy mahsuli bo’lib, biz uchun o’tmishni tarixiy yodgorligi hamdir.

Xalq og’zaki poetik ijodi — mehnatkash omma ijodi, xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, xalq san’atining boshqa turlaridan (muzika, teatr, raqs, o’yin, tasviriy va amaliy san’at hamda boshqalardan) o’ziga xos

[2] . DTS va o‘quv dasturi 6 - maxsus son

xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir. Mehnatkash omma tomonidan og'zaki yaratilib, xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan badiiy asarlar o'zbek xalq poetik ijodini tashkil etadi.

Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodini o'rganishda o'zbek musiqashunos va olimlari shuningdek, San'at va madaniyat, O'zbekiston davlat konservatoriyasi professor-o'qituvchilari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari to'plami , Abdullaev R. O'zbek mumtoz musiqasi, Akborov I.A. Kon Yu. O'zbek xalq musiqasi, Ibraximov O. Musiqa ijodiyoti masalalari, Ibraximov O.Sadirov J. Musiqa 7-sirf uchun darslik, Karomatov F.K. O'zbek cholg'u musikasi, Mamadoliev F. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari, Matyoqubov O.Maqomat, Matyoqubov O. Baltaev R. Aminov X. Xorazm tanbur chizig'i , Mannopov S.O'zbek xalq musiqa madaniyati, Mamirov K. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi, Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir, Rajabov I. Maqom asoslari , Salomonova T. Uzbek musiqasi tarixi kitoblarida ushbu mavzuni o'rganganlar.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda bitiruv malakaviy ish mavzusini: "**Umumta'lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish uslublari**" deb nomladik.

Tadqiqot ob'yekti: Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan o'quvchilarni tanishtirish, Xoji Abdulaziz ijodida shakllangan mumtoz musiqa asarlari xaqida tushincha berish.

Tadqiqot predmeti: Umumta'lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish uslublari

Tadqiqot maqsadi: Xoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va ijodi bilan umumta'lim maktabi 7-sinf

o’quvchilar 3-chorakda tanishish va buning asosida umumiy tushunchaga ega bo’lish

Tadqiqot vazifasi:

1. O’zbek xalq musiqa ijodida musiqiy janrlarni tarixiy shakllanishi
2. O’zbek xalq musiqa ijodiga mansub musiqiy janrlar va ularning tarixiy shakllanishi
3. Ta’lim jarayonida milliy musiqa merosimizni amaliy o’zlashtirish
4. Maxalliy uslublarga xos o’zbek xalq musiqa ijodini o’rganish usullari
5. Umumta’lim maktablari musiqa madaniyati darslarida Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirish uslublari
6. Pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi bilan tanishtirish uslublari

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

Xoji Abdulaziz Abdurasulov xayoti va ijodi bilan tanishtirishda ko’pgina yozma manbalarda maqomlar tushunchasini, xos belgilarini, ularning ba’zi amaliy tomonlarini anglashga yordam beradigan qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Bu manbalar bilan tanishish va o’rganish shuni ko’rsatadiki, Samarqand-Buxora mahalliy usulbiga xos bo’lgan o’zbek bastakorlari ijod qilgan mumtoz ashulalar bugunki kunda ham san’at ahli repertuaridan joy olganligi, ushbu o’lmas asarlar tinglovchilarni o’ziga rom etayotganligi shubxasizdir.

Tadqiqotda qo’llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi:

1. Analiz va sintez

2. Maxsus adabiyotlar va manbalarni o’rganish (Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari to’plami , Abdullaev R. O’zbek mumtoz musiqasi, Akborov I.A. Kon Yu.O’zbek xalq musiqasi, Ibraximov O. Musiqa ijodiyoti masalalari , Ibraximov O.Sadirov J. Musiqa 7-sirf uchun darslik, Karomatov F.K. O’zbek cholg’u musikasi, Mamadoliev F. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari, Matyoqubov O.Maqomat, Matyoqubov O. Baltaev R. Aminov X. Xorazm tanbur chizig’i , Mannopov S. O’zbek xalq musiqa madaniyati, Mamirov K. Uzluksiz ta’lim tizimida musiqa fanlarini o’qitish masalasi, Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir, Rajabov I. Maqom asoslari , Salomonova T. Uzbek musiqasi tarixi, Tolipov U. Pedagogik texnologiyalar, Tursunov R. O’zbek bastakorlar ijodi, Eshmuratov M. Innovatsion texnologiyalar, mavzuga taaluqli adabiyot va manbalarni o’rganish)

3. Ma’lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash

4. Pedagogik kuzatish

Analiz va sintez uslubidan ilmiy materialni tanlash, o’rganish, tadqiqot mavzusiga doir fikr va g’oyalarni ajratish, tadqiqot xulosalarini chiqarishda foydalaniladi.

Tadqiqot mavzusiga doir asosiy ilmiy materiallar, g’oya va fikrlar mazmuni musiqiy pedagogik mahorat asoslari, pedagogik texnologiya, zamonaviy kompyuter texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish fanlarga oid maxsus adabiyotlarda o’z aksini topgan.

Umumlashtirish va taqqoslash uslubi yordamida har bir o’rganilayotgan muammo yuzasidan xulosalar chiqariladi.

Pedagogik kuzatish uslubi vositasida umumta’lim maktabida pedagogik texnologiyasidan foydalanishning ilmiy - metodik asoslari o’rganiladi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati:

- Umumta’lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirish uslublari, musiqiy ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishning ilmiy asoslanishida;
- Umumta’lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg’ulotlari jarayonida Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirish uslublarining pedagogik-psixologik jihatlarini tadbiq etishda;
- Umumta’lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg’ulotlari Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirishning o’ziga xos xususiyatlari ochib berilganligida;
- Umumta’lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg’ulotlari Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirishning innavatsion texnalogiyalardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilganligida;
- Umumta’lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg’ulotlari jarayonida Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirishning o’quvchilarning o’zlashtirish darajasini baholash mezonini ishlab chiqishda;
- Texnikaviy rivoj bosimida jadallab borayotgan va o’z ta’sirini o’tkazayotgan musiqiy taraqqiyot oqimining yoshlarga ta’siri o’z kuchini ko’rsatmoqda, ta’limda vaqt tejash hisobiga an’anaviy usulga nisbatan ko’proq material o’rgatilishi va mazmunining chuqurlashtirilishida;
- Umumta’lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg’ulotlari jarayonida Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirishning metodikasini ishlab chiqilishi va metodik tavsiyalar berilishida.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. O’zbek mumtoz musiqasida Xoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi musiqashunos olimlar tomonidan atroflicha o’rganilib kelinganligi asoslab berildi;

2. Umumta’lim maktablari musiqa madaniyati mashg’ulotlari jarayonida O’zbek mumtoz musiqasining nazariy masalalari Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog’iy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi ulkan olimlar asarlari musiqa ilmining poydevorini tashkil qilib, musiqaning yuzaga kelishi, uning ijtimoiy hayotdagi o’rni, tarixiy shakllari, ijrochilik va ta’lim masalalari hamda ular negizida Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijod qilgan ashulalar, lad va usul tuzilmalarining tarkib topish qonun-qoidalari batafsil yoritilib, pedagogik texnologiyasidan foydalanishning metodik ta’minoti yaratildi;

3. Umumta’lim maktablari 7-sinfida Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirish uslublari metodikasi ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi:

Kirish, 2 bob, xulosadan iborat. Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati ilova qilinadi. Ish 61 bet (asosiy matn – 50 bet, 33 ta manba va ilova)dan tashkil topgan.

Kirish qismida tadqiqot qilinayotgan mavzuning dolzarbligini asoslab berilgan, izlanish maqsadi, ob’yekti, predmeti, vazifa va metodlari ko’rsatilgan, ilmiy farazi qo’yilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy qimmati ichib berilgan.

Birinchi bob “O’zbek xalq musiqa ijodida musiqiy janrlarni tarixiy shakllanishi” mavzuida muammoning nazariy, tarixiy asoslari tahlili natijalari yoritilgan, O’zbek xalq musiqa ijodiga mansub musiqiy janrlar va ularning tarixiy shakllanishi jihatlari va tamoyillari asoslab berilgan.

Ikkinchi bob “Umumta’lim maktablari musiqa madaniyati darslarida Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirish uslublari” mavzusi pedagogik texnologiyasidan foydalanib o’quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari, pedagogik texnologiyasidan foydalanish jarayoni yoritilgan.

Xulosada olib borilgan tadqiqotning asosiy yakuniy fikr va umumlashmalari bayon qilingan.

I-Bob O’zbek xalq musiqa ijodida musiqiy janrlarni tarixiy shakllanishi

1.1 O’zbek xalq musiqa ijodiga mansub musiqiy janrlar va ularning tarixiy shakllanishi

San’at va adabiyot shu jumladan, xalq og’zaki ijodining har bir barkamol asari ma’lum bir tarixiy zamin, iqtisodiy – hayotiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy talablari asosida ijod etiladi va ommalashadi.

O’zbek xalq og’zaki ijodi shu jumladan, xalq qo’shiqlari va ularning turlari uzoq davrlar davomida shakllangan bo’lib, ular xalqimizning turli sharoitlaridagi turfa marosimlar va boshqa shu kabi jarayonlar bilan uzviy bog’liq. Ular o’z zamonasini ijodiy mahsuli bo’lib, biz uchun o’tmishni tarixiy yodgorligi hamdir.

Xalq og’zaki poetik ijodi — mehnatkash omma ijodi, xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, xalq san’atining boshqa turlaridan (muzika, teatr, raqs, o’yin, tasviriy va amaliy san’at hamda boshqalardan) o’ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og’zaki so’z san’atidirMehnatkash omma tomonidan og’zaki yaratilib, xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan-avlodga o’tib kelayotgan badiiy asarlar o’zbek xalq poetik ijodini tashkil etadi.

Xalq og’zaki badiiy ijodiyotining bir qismini folklordagi qo’shiq va uning turlari tashkil etadi. Qo’shiqlar mazmuni jihatidan ham, badiiy shakli tomondan ham o’ziga xos xususiyatiga ega. Uning namunalari dastlab iste’dodli shaxslar tomonidan yakka yoki jamoa ishtirokida yaratilib, so’ngra el orasida og’zaki an’ana uslubida, maxsus yozuvlarga bitilmasdan, o’tib kelgan va ommalashgan. Shu asnoda asrlar davomida shakllangan xalq qo’shiqlari va ularning turlari avloddan-avlodga meros qilib, bizga qadar ijtimoiy ong xotirasida saqlanib kelindi.

Har bir qo’shiq ma’lum tarixiy sharoitda yuzaga kelib rivojlanish xalq qo’shiqlarini mazmuni voqyelikning lirik havasini badiiy o’zlashtirib, ya’ni yuz

bergan hodisa, faktlarga munosabat his-tuyg'u va kayfiyat orqali ifodalanadi. Mana shu xususiyatdan kelib chiqib ulug' mutafakkirlar qo'shiq haqida o'z fikrlarini bayon etganlar. Ular "turmushning odatdagi hayajonli hodisalari xalq lirik qo'shiqlarida teran his bilan ifodalanadi.[3]" degan.

Yakka ijod qanchalik iste'dodli bo'lmasin, u muayyan ijodiy an'analar doirasidan chetga chiqmay, qadimdan davom etib kelgan jamoa ijodning an'analariga bo'ysungan. Shunga qaramasdan, yakka ijod, jamoa ijod singari, xalq hayoti va uning turli tomonlarini to'g'ri, aniq badiiy jihatdan mukammal ifoda etishi, xalq didi va talabiga mos tusha olgandagina uzoq yashaydi. Demak, ijrochi va ijodkor jamoaning yordamchi muallifi sifatida maydonga chiqib, xalq qo'shiqlari, ertak va dostonlarini kuylash davomida unga sayqal berib, g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammallashtira boradi

Ma'lumki, ayrim tarixiy manbalarni, dalillarni to'liq esda qolmasligi, zamon taqozosi bilan unutilishi natijasida ularning asardan tushib qolishi yoki o'zgarishi, qorishtirib talqin etilishi mumkin

. Ma'lumki, tarixiy taraqqiyot natijasida ba'zi bir asarlar dastlabki shaklini o'zgartirishi, hatto so'nib, iste'moldan chiqishi mumkin. Masalan, 1920—1930-yillarda doston yaratish sekin-asta so'na boshlagan bo'lsa, qo'shiq, yaratish davom etmoqda.

Xalq ijodining har bir namunasi asrlar davomida ko'plab talantli xalq ijodkorlari tomonidan nihoyatda pardozlangan, yuksak san'at namunasi darajasiga ko'tarilgan. Demak, estetik sezgilarimiz rivojlananishida, go'zallikni, badiiy so'z qadri va qimmatini, ona tilimiz boyliklarini his qilishimizda folklorning roli beqiyosdir. Shuni aytish joizki, folklor kasbiy san'at turlari - adabiyot, teatr, muzika, kino va boshqalarning taraqqiyotida ham muhim rol o'ynadi va o'ynamoqda.[4]

[3] Axmadxo'jaev A. O'zbek xalq ijodi T.1967, 132-bet
[4] N. M. Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi, T. 1976, 42- bet

Xalq qo’shiqlari mazmun jihatdan oilaviy maishiy, ijtimoiy-tarixiy, mavzularni o’z ichiga oladi. Janr ya’ni musiqiy asar turlariga qo’shiqlar ajratilsa, ular tarixiy lirik va marosim qo’shiqlarni tashkil etadi. Xalq hayotidagi tarixiy o’zgarishlarda esa qo’shiq faqat mvazu bilangina farq qilmay, g’oya obrazlar bilan ham o’zgaradi va hayotga bog’lashda yangi ijtimoiy vazifa kasb etadi.

Qo’shiqlarning tili sodda bo’lsa, ularda biror bir maqsad uchun ishlatilgan so’z, ibora o’z o’rnida qo’llanilsa, har bir misrada fikr mavjud bo’ladi. Bu she’rlar kuyga solishga qulay, qisqa esda qoladigan qofiya, vaznga ega bo’lgan. Qo’shiqlarda davrning muhim masalalari kuylanadi va shu tufayli tez tarqaladi. O’zbek musiqa merosida qo’shiq janri va uning turlarini rivojlanishi va shakllanishi haqidagi tarixiy she’riy, badiiy tomonlariga nisbatan ham ma’lumotga egamiz.

O’zbek musiqa merosini qatlamidan biri – o’zbek xalq musiqa ijodini o’rganish keyingi davrlarda yuzaga kelgan. Avvalambor bu merosni to’plash, uni mavjud bo’lgan ovoz taratish vositalariga yozib olish va nota yozuvlarida nashr etish zarur edi. Chunki, bu borada o’tmishdan qolgan yozma yodgorliklar nihoyatda oz bo’lib, ularning bori ham, asosan, o’rta asrlar davrida keng rivojlangan bo’lgan kasbiy musiqasiga taalluqlidir.

Musiqa ijodida qo’shiq janri va uning turlariga doir esa to’liq bo’lmagan yozuvlar, ya’ni xalq qo’shiqlarining she’rlari bayon etilgan yozma manbalar uchraydi xolos. Xususan, shunday qimmatli manbalardan biri XI asrda yashagan ulug’ bobolarimiz Mahmud Qashg’ariyning “Devoni lug’atit turi” (turkiy so’zlar davoni) asaridir. Ushbu devonda ilmiy hikmat, pand-nasihat, mehnatga shijoat, sevgi tuyg’ulari kabi mavzularda she’riy parchalar keltirilgan. Bu she’rlar ma’lum ohanglarda kuylanganligi shubha tug’dirdimaydi. Zero, she’riyat “ilgari kuylash uchun yo musiqa eo’rligida aytish uchun” yaratilgan. Devondagi she’rlar ham bu fikrni bir qancha bo’lsa-da tasdiqlaydi.[5]

[5] Mamirov K.A. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o‘qitish masalasi /To‘plam/ T.2008, 154-bet

She’rlar qo’shiqlarning turli mazmunlarda kuylanganligidan bizni ogoh etsa-da, ammo ularning kuy, ohang xususda deyarli tasavvur bermaydi.

Xalqning bayram marosimlari, mehnat marosimlari bo’lib, ularda musiqa hamrox bo’lgan. O’rta asr olimlari musiqaning va olam tuzilishi bilan tabiatdagi o’lish va tirilish haqidagi afsonaviy hodisalar bilan bog’lashga bo’lgan intilishlarini ham ko’rsatib o’tganlar. Antik davri eradan oldingi IV va eramizning Sh asrigacha, madaniyatida sof mahalliy xususiyatlar mavjudligi musiqaga oid risolalarda va turli topilmalarda aks ettirilgan..

Xalq ijodi va og’zaki an’anadan professional asarlar tug’ilishi uchun asos bo’lib xizmat qildi. Ashulalardagi “Turi Avji” atamasi o’sha davrdan boshlangan bo’lishi ham ehtimoldan holi emas. Arablar hukmronligi (VII-VIII) boshlangan davrda mahalliy musiqa an’analari aniq bo’lib qoldi. Xalq ijodi va kasbiy musiqa shakli vujudga keldi.

O’rta Osiyo Temur hokimiyati ostiga birlashtirilishi bilan XIV asrdan madaniyat va san’atda yangi yuksalishi boshlandi. Temur va temuriylar davrida saroydagi hashamatli tantanalar musiqa sadolari ostida o’tkazilgan. Xushovoz hofizlar va shirin ovoz sozandalar esa fors namunalari, arab ohanglari, turkiy an’analar, mo’g’il ovozlari, xitoyliklar (ashula aytish) qonunlari va oltoyliklar o’lchovlari asosida kuy chalib qo’shiq aytar edilar”. Sharafiddin Ali Yazdiniy “Zafarnoma” asarida xalq qo’shiqlari va epik dostonlardan iborat bo’lgan xilma xil kuylarni ham ta’kidlaydi [6] .

XVIII asrgacha bo’lgan davrda Najmiddin Kavkabiyning “Musiqa haqida risola” sida musiqachilar haqida Darvish Ali Changiy o’z risolasida musiqaga, turli davrlarda yashab ijod qilgan musiqachilarga, cholg’ularga tavsif bergan. Musiqiy nazariy risolalar bilan bir qatorda “Bayozlar” ham vujudga keladi. Ular muayyan kuylar nomi ko’rsatilgan qo’shiqlar tekstidan iborat to’plam edi.

[6] Mamirov K.A. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o‘qitish masalasi /To‘plam/ T.2008, 30-bet

XIX asr oxiridan boshlab XX asrdan Turkiston xalqlari musiqa ijodini o'rganishi mahalliy musiqaga qiziqishni uyg'onishi O'rta Osiyoda o'zbek musiqa folklorshunoslik ilmiga asos soldi.

O'zbek xalq musiqa ijodini hozirgi davrda mahalliy uslublarni mahalliy she'valariga, mahalliy kiyim madaniyatiga qiyoslab o'rganishlari yo'liga qo'yilgan. Vohalardagi mahalliy musiqiy an'analar va musiqa merosdan yorqin namunalarni bilishlari o'z vohalaridagi, viloyatlaridagi mashhur bo'lgan sozanda, xonanda, qo'shiqchi, xalfa, dostonchi yoki yallachi va boshqalarning ijodi, ularning o'ziga xos ijro xususiyatlarini o'rganishlari xalq qo'shiqlari va uning turlarini keng o'rganish va rivojlanishi tarixiy jarayonli bo'lib qoladi.

O'zbek xalq musiqa ijodi ikki qatlamga ajratilgan holda o'rganiladi

- birinchisi o'zbek xalq ijodiga xos janrlar,

-ikkinchisi o'zbek mumtoz musiqiy janrlari

Birinchi qatlamga xalq ijodiga mansub qo'shiq, terma, yalla, mavsum va marosim qo'shiqlarini janr sifatida ajratib olsak, mumtoz musiqa janrlarini ashula, katta ashula, ikkinchi qatlamni mumtoz yalla, o'zbek dostonlari va maqomlar tashkil etadi.

Xalq qo'shiqlari sinkretik janr bo'lib, unda so'z kuy va o'yin o'zaro bog'lanib kelishi anglanadi. Chunki manbalariga ko'ra xalq hayoti bilan bog'liq turli ko'rinishlarda, xususan, mehnat jarayoni, oilaviy marosim va urf-odatlar, sayil va boshqa ommaviy bayram tantanalarida qaror topgan va ijro etib kelingan. Shuningdek, xalq og'zaki musiqa ijodi doimo so'z, kuy va ijro birligida namoyon bo'ladi.

Qo'shiq – janr sifatida nisbatan kichik diapazonli kuydan iborat "barmoq vazndagi she'riy matnini to'rtlikdan iborat bir bandini yoki bir ikki misrasini qamrab oladi, ayni vaqtda har bir she'riy misraga tugal melodik moslashtirilgan bo'ladi."[7]

[7] Yunusov O. O'zbek xalq musiqa ijodi 1-qism T.1994, 22-bet

Lirik qo’shiqlar ham o’ziga xos bir holda aholining mehnat faoliyati aks ettiradi. Qo’shiqlarning lirik qahramoni o’zidan boshqalarning qayg’u va shodligiga yirik, boshqalar esa tasvirlagan hodisa manzaralarni o’ziniki bilib, ularning o’y-andishalari fikr-hislari, fe’l-otvorlari aynan qo’shiqda mujassam bo’lganligi uchun ko’pchilikka yaqindir. Ularning shod-hurramliklari, g’am-anduhlari, chekkan kulfatlari, surayotgan huzur halovatlarining sababi ham barchaga tushunarlidir. Qo’shiqlardagi tabiiy haqiqat barchaga barobar bo’lmasada ta’sir etadi.[8]

San’atning eng oliy turi qo’shiq, ularni yaratish kuylash, tinglash uchun did, bilim va nihoyat his-tuyg’u zarur. Davrlar osha avloddan-avlodga o’tib bizgacha yetib kelgan qo’shiqlar va ularning ohanglarida xalq ruhini yuksakliklarga, ezgulikka intilishi, qalb so’zi va yurak parvozi saqlanib kelgan.

Terma – aytimning bir turi bo’lib, lug’aviy jihatdan yig’moq, tanlamoq, saralab olmoq ma’nolarini anglatadi. Termalar ikki asosiy ko’rinishda hozir bo’ladi. Baxshi, shoir-dostonchi termalari va xalq termalari.

Lapar –juftlikda ijro belgisini bildiradi. Lapar odatda yigit va qiz o’rtasida aytishuv tarzda ijro qilinadi. Bunday vaziyat an’anaviy nikoh to’y marosimlarida qiz olish bazmida yuzaga kelgan. Keng kuylanadigan laparlar “Qoraqosh”, “Qilpillama”, “Bilaguzuk”. Laparning mahalliy turi sifatida Xorazm laparlarini ko’rsatish mumkin. Laparchi ayol bo’lib, yakka ijro etadi. “Galdim senga mehmon bo’lib”, “Chol xo’rozim”, “Oxtaraman”, “Kostyumi”, “Pardevol” Xorazm laparlari yaqqol misol bo’la oladi.[9]

Yalla – ko’p xususiyatli janr. Unda raqs qo’shiq va cholg’u qo’llaniladi. Yallaning raqsbobligi ijroda ko’pchilikning ijro etishi va aytishuvlik sifati muhim. Unda kuy va raqsning mushtarakligi nisbatan barqaror. Yallalarda ko’pincha naqarot sifatida “yalli-yalli”, “yallo”, “yallama” so’zlari qo’llaniladi. Umumta’lim maktablarida “yallama yorim”, “ox yalli” qo’shig’i keng

[8] Axmadxo‘jaev A. O‘zbek xalq ijodi T.1967 74-bet
[9] Yunusov O. O‘zbek xalq musiqa ijodi 1-qism T.1994, 32-bet

o’rganiladi. Yallaning bir turi sifatida uning keng tarqalgan Tanavor turlari keng tarqalgan. Tanavor – o’zbek xalq musiqa merosida lirik kuy, raqs, ashula va badiiy asar sifatida o’z aksini topgan.

1.2 Ta’lim jarayonida maxalliy uslublarga xos o’zbek xalq musiqa ijodini o’rganish

Barkamol avlod tarbiyasida san’atning, xususan musiqa san’atining tutgan o’rni beqiyos. Musiqa o’z tabiyatiga ko’ra jon ozig’i, qalb ko’ri, xissiy va ruhiy kechinmalar uyg’otuvchi qobiliyat, ijod va nozik did tarbiyalovchi kuchli vosita. Musiqaning ana shu o’tkir, tarbiyaviy kuchli vositasidan foydalanish, san’at orqali san’atga mehr uyg’otib, o’quvchi yoshlarning nafosat dunyosini o’stirish, ularda yuksak ma’naviy va ahloqiy sifatlarini tarbiyalash vazifasi o’quv muassasalar zimmasiga yuklatilgan.

Mamlakatimizda qobul qilingan milliy dastur va ta’lim tizimi islox etilishining bosqichma bosqich amalda olib borilishi samarali natijalarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu davlat dasturi talablari madaniyat va san’at o’quv muassasalariga ham tegishli bo’lib, unda xozirgi davrda to’plagan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida qadrlar tayorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish ustuvor vazifalari belgilangan.

San’at ta’limini muhim tarkibiy qismi bo’lmish kasbiy musiqa ta’limi o’zga soha yo’nalishlariga nisbatan farqli jihatlari va o’ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Shu jumladan, u o’z vaqtida o’zaro bog’liq bo’lgan boshlang’ich, o’rta maxsus va oliy o’quv muassasalaridan iborat puxta tizim sifatida, sinovdan o’tgan butun jahonda tan olingan uslublar negizida tashkil topilgan.[10]

Mustaqillik davrida ta’limning shakli va mazmuniy jihatlari qayti ko’rib chiqilishdan tashqari, uning ayrim tizilmalari qayta ishlab chiqildi hattoki, mazmun jixatlari ham yangilandi. Ushbu yangiliklar albatda shu davrgacha

[10] Ibroximov O. Musiqa ijodiyoti masalalari T.2002, 49-bet

to’plangan tajribani inobatga olgan xolda yuzaga keldi. Buning natijasida talaygina yutuqlar qo’lga kiritildi, yani o’zbek xalqining ardoqli milliy musiqa qadriyatlarini mashhur sozanda va xonandalar ijodini va ijrol uslubini o’rganish hamda zamonaviy nota yozui asosida yoshlarga o’rgatish, shu jumladan Xorazm maqom merosini yangicha ma’lumotlar asosida barcha kuy va qo’shiqlari, ashulalarini izchil ilmiy o’rganish va amaliy o’zlashtirish maqsad qilib qo’yildi.

Xozirgi zamon milliy bastakorlik udumlarini e’zozlash va ravnaq toptirish ta’lim va tarbiya jarayonida ustoz shogird ilg’or an’analaridan keng foydalanish, mumtoz va zamonaviy musiqa madaniyati mashxur namayondalari va ta’lim muassasalari mutaxasislari bilan aloqalarni o’rnatish say-harakatlarda yaqqol kuzatilmoqda.

Mumtoz janrlar – o’zbek xalq musiqasining qo’hna, nihoyatda boy va serjilo an’analariga asoslangan janrlar. Milliy musiqa merosimizni tashkil etuvchi kasbiy janrlar tarkibi asosan quyidagilardan iborat: ashula, yalla (shaklan rivojlangan, bastakorlik ijodiga oid namunalari), katta ashula, suvora, kuy, maqom, doston.

Ashula baland avji borligi bilan sezilarli darajada farqlanadi, san’atkorlar orasida ko’proq xalq ashulasi deb yuritiladi. Tanavor Farg’ona vodiysida keng tarqalgan ana shunday ashulalardan biri. Ashular janrining ko’p uchraydigan yana bir ko’rinishi o’tmish davrlar bastakorlik ijodiyotiga molikdir. Xonanda va hofizlar ijro bisotidan asosiy o’rin egallagan “Karimqulbegi”, “Giryo”, Xoja Abdulaziz Abdurasulovning “Gulzorim”, “Beboqcha” T.Jalilovning “Ishq seli”, D.Zokirovning “Ey sabo” va boshqa ashulalar shular jumlasidandir.

Katta ashula – o’zbek bastakorlik ijodiyotining noyob benazir mahsullaridan biridir.U kasbiy, ustozona, musiqiy merosimiz qatlamiga mansub bo’lib, asosan Farg’ona-Toshkent mahalliy uslubiga xosdir. Katta ashulada qamrab olinuvchi tovushlar ko’lami nihoyatda keng. Uning musiqiy tili uzluksiz badihago’yligi, murakkab ijrosi bilan ajralib turadi. Katta ashula ikki yoki uch nafar xonandaning hamnafasligida hyech qanday cholg’u jo’rligisiz ijro etiladi.

XX asr mobaynida zamonaviy o’zbek shoirlarining she’rlariga ham aytilib kelmoqda. Jo’raxon Sultanov, Rasul qoriy Mamadaliev, Fattohxon Mamadaliev, Maxmudjon Tojiboev kabi hofizlar marosimiga yetkazib kuylashgan.

Doston –musiqa ijodkorligi va ijrochiligida kasbiylik darajasini ilk bor taqozo etgan. Unda ustoz-shogirdlik kabi qadimiy an’ana shakllangan. O’zbek dostonlarini ijrochilik sifati bo’yicha ikki turga ajratish mumkin. Birinchisi “ichki ovoz” bilan she’riy shaklda qobuz yoki do’mbira jo’rligida ijro qilinadi. Ikkinchisi dutor, bulomon, g’ijjak va doiradan iborat ansambl jo’rligida ochiq ovozda aytiladigan dostonlar.

O’zbekiston xududida bir necha dostonchilik maktablari mashhur ijrochilik markazlari qadimdan mavjud. Ular asosan Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Farg’ona va Xorazm vohalarining har xil mintaqalarida joylashgan. Mashhur dostonlardan “Go’ro’g’li”, “Alpomish”, “Oshiq G’arib va Shoxsanam” kabi dostonlar el orasida tarqalgan. Dostonlar tarixiy, romantik, lirik,oshiqlik mavzusida bo’ladi. Xorazm vohasi dostonchilari ochiq ovozda kuychan xarakterga ega ohangda ijro etishadi. Dostonlarni baxshilardan tashqari xalfalar ham oshiqlik dostonlarining qismlarini ijro etishadi.

Musiqa o’qituvchisi umumta’lim maktabining har bir sinfida o’rgatish uchun tavsiya qilinayotgan qo’shiq va ashulalar dars mavzusi bilan bog’lagan holda puxta o’ylab chiqishi kerak. O’zbek xalq musiqa ijodi asosan to’rtinchi sinfda to’lik o’tish rejalashtirilgan, yettinchi sinfda esa mahalliy uslublarga xos bo’lgan o’zbek xalq musiqa ijodi va mumtoz musiqa haqida ma’lumotlarni o’rganishga e’tibor qaratilgan., allbatda xar bir mavzu musiqiy nomunalar bilan mustahkamlanidi.

Repertuarga kiritilgan qo’shiqlar g’oyaviy-badiiy qiymatga qarab tanlanmog’i, o’quvchi bolalarga tushunarli va mavzu jihatidan xilma-xil bo’lmog’i kerak. Har bir qo’shiqni tahlil qilib uning mazmun va mohiyatini o’zi

oldin bilib olibmusiqada shu mazmunning qanday ifoda vositalari bilan aks ettirganligini aniqlab berishi zarur.

O’qituvchi avvalo o’zi qo’shiqni ijro etib berishi kerak. Bu o’rgatish jarayonidagi muhim bir payt hisoblanadi. O’qituvchi qo’shiqni nechog’lik aniq ravshan, ta’sirli ijro etsa, bu qo’shiq o’quvchilarga shunchalik tushunarli bo’lib qoladi va qo’shiqni o’rganish ularga oson bo’ladi.Bolalar qo’shiqni chuqur ta’surot bilan tinglashar ekan, ular shu qo’shiqni tezroq o’rganib olgisi keladi.

Shunday qilib, bolalarni jim o’tirib zo’r diqqat bilan qo’shiqni tinglashga odatlantira bilish kerak. Qo’shiq o’rgatishda noan’anaviy uslublardan, texnik vositalardan video,audio tasmadagi yozuvlar yoki kompyuterda ishlangan dasturlardan foydalangan holda o’rgatilsa yanada maqsadga muvofiq bo’ladi.

O’quvchilarga turli vohalarga mansub qo’shiqlarni o’rganishda o’sha vohadagi qo’shiqlarning kiyimlari, cholg’u asboblari, raqslari bilan mushtaraklikda o’rgatilsa, bolalarda chuqur taassurot qoldiradi. Dars jarayonida o’quvchilarning o’zlari ham ishtirok etib turishi yoki bo’lmasa turli cholg’ularni ijro qila olishi orqali jamoaga qo’shilishi katta ahamiyatga ega. Bunday jonli aloqa orqali, ifoda vositalarni ta’siri yanada chuqurroq bilimga va taassurotga ega bo’lishini ta’minlaydi.

O’qituvchi qo’shiqni bir bora boshdan oxirigacha kuylagandan keyin uni qismlarga ajratib ham ijro etishi mumkin. Agar qo’shiq tabiat manzaralarini aks ettirsa, yil fasllarini ifodalasa, unda qandaydir umumiy mazmun va kayfiyat bayon qilinadigan bo’lsa,qo’shiqning bandini ijro etishning o’zi kifoya qiladi, boshqa bandlari kuylamasdan o’qib beriladi xolos. Ammo ayrim qahramonlarga tarixiy vaziyatlarga oid qo’shiq va ashulalarda bo’lganidek, qo’shiq rivojining umumiy yo’li yaqqol ma’lum bo’ladi.

Bolalarda yaxlit badiiy obraz taassurotini hosil qilishi uchun qo’shiqni to’liq ijro etish afzal bo’ladi. Masalan, doston qo’shiqlarini o’rgatish jarayonida yoki “Bog’bon qiz” qo’shig’ini o’rganishda bandni o’zini o’rganish ijro etishning o’zi kifoya qiladi, boshqa bandlarni o’qibberish mumkin.

Har qanday qo'shiqni o'rgatishda suhbat o'tkazish, qo'shiq o'rgatish oldidan bo'lib o'tadigan jarayon, "Suhbat" qo'shiqning mazmuni va musiqaviy ta'sirchanligi, qo'shiqlarni yaratilish jarayoni, tarixiy shakllanishi va hozirgi davrdagi ahamiyati haqida to'liq ma'lumot boradi. Bolalarda suhbat jarayoni qo'shiqni ifodali kuylash uchun sharoit yaratib beradi.

Suhbat o'qituvchining qo'shiqni ijro etishdan oldingi kirish so'zi, xotima, xulosa so'zi tarzida o'tkazilishi mumkin. Kirish so'zi nihoyatda qisqa va mavzu bilan bog'langan holda bo'lishi kerak. Chunonchi,o'qituvchi faqat qo'shiqning nomini uning qaysi mahalliy uslub turiga taalluqliligini va qaysi janrda yozilganligi haqida bo'lishi kerak. Masalan, qarsak qo'shiqlarini o'rganishda qisqa suhbat o'tkazilib, bu qo'shiqlarni Buxoro-Samarqand mahalliy uslubiga xosligi besh qarsak-ritmik tuzilishi tarixiy shakllanishi, unda jo'rsoz sifatida davrada jamoa bo'lib turganlar qarsak chalib usul berishi va qo'shiq nomi ana shu qarsak ritmi bilan bog'liq holda nomlanishi haqida suhbat o'tkaziladi. Yoki Xorazm mahalliy uslubiga xos "Lapar" janridagi qo'shiq turlaridan birini o'rganish jarayonida bu janrni boshqa vohalarda aytiladigan laparlardan farqini aniqlash uchun o'quvchilarni o'zlarini ikki tomonga ajratib, bir guruhdoshlar Xorazm vohasiga mansub laparni, ikkinchi tomondagilarga boshqa vohaga mansub laparni o'rgatish orqali maqsadga yetish mumkin.[11]

O'qituvchining xazil mutoyiba qo'shiqlarni o'rgatish uchun oldin faqat mazkur, qo'shiq nomi va matni o'rgatiladi. Masalan, Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubiga xos "yallachilik san'ati" mavzusini o'rgatish va shu janrdagi "Ayajon" qo'shiqi matni oldindan o'rgatiladi, keyin rollar taqsimlanadi. Bunda o'quvchi bolalardan bo'yi balandroq o'quvchini "onasi" roli beriladi. Sal nozikroq qiz bolaga "qizchasi" roli beriladi. "Ayaton" qo'shig'ini o'rgatishdan oldin "Yallachi san'atkorlar" haqida suhbat yuritiladi, bu janrni faqat ayollar tomonidan ijro qilinishi, to'y-tomoshalarda tarafma-taraf bo'lib, faqat doira cholg'usi jo'rligida aytilishi uning mazmun mohiyati tushintiriladi. Keyin

[11] Qilichev T.Xorazm xalq teatri T.1988, 135-bet

o’qituvchi suhbatni juda cho’zmasdan amaliy ko’rsatmalar bilan goh “onasi”ni so’zlarini, goh “qizini” so’zlarini qo’shiq qilib musiqa bilan o’rgatadi. Demak, suhbat amaliy o’zlashtirish jarayoni bilan teng olib boriladi.

Bolalar o’qituvchi ijro qilayotgan qo’shiqni tinglatar ekan ularda bu jarayon katta taassurot qoldiradi. Shu qo’shiq haqida ular fikrlashadilar va shaxsiy munosabatini bildirish istagi tug’iladi. Bu istak darsning muhim paytidir. Lekin, ushbu masalada o’zbilarmonlikka yo’l qo’yib bo’lmaydi. O’qituvchi suhbatni asoslangan holda yo’lga solib boshqarib turishi kerak. Bunda bolalar bir qancha savollar berishi mumkin. Bunda bolalar qo’shiqdan qahramonlar nimaga o’zlarini bunday tutishi yoki qo’shiqdagi qahramonning yashagan davri va unga davrda qanday hayot bo’lganligi odamlar o’sha davrlarda qanday kiyinishi urf-odatlari, musiqiy cholg’ularning qaysi biri bo’lganligi yoki kuy-ohanglarni usuli va sur’ati haqida savollar berishlari mumkin. Bu holatda o’qituvchi suhbat jarayonida bolalarga yangi bilim va tushunchalarni berib, qo’shiqdagi badiiy ifodadan tashqari musiqiy ifoda vositalarni ularga tushinarli shaklda ochib berishi kerak.

O’qituvchi asarda ifodalangan holda bolalarni tarbiyalash vositasi sifatida qo’llash mumkin. Ayrim hollarda qo’shiqning kuyini bolalarning esiga solish uchun suhbatdan so’ng uni o’rganish jarayoniga o’tiladi.

O’rganish jarayoni oldin matn o’rganiladi. Qo’shiqda kishi ongiga kuchli ta’sir ko’rsatuvchi vosita bo’lgan musiqa ya’ni kuy-ohang bilan so’z chambarchas bog’liqdir.

Bolalar qo’shiqni matnni tez va osongina esda qoldirishga o’rgatish kerak va matnni murakkabligiga qarab so’zlarini o’rgatish lozim. Birgalikda to’rtliklar takrorlanadi, buni o’qituvchi bolalarga taklif qiladi, so’zlar to’g’ri, ta’sirli, aniq talaffuz etilishi kerak. Bolalarni jarangdor qilib matnni o’qib berishi juda foydali bo’ladi, bunda o’qish artikulyasiya apparatini aktivlashtiriadi, nafas olish va uni uzoq vaqt mobaynida chiqarmay turishni shakllantiradi. Matnni, “zanjirband” usulida qaytarish ma’qul. Bunda bir bola birinchi satrni , ikkinchi bola ikkinchi

satrni, keyingi bolalar shu tariqa butun boshliq she’r matnini takrorlab o’rganadilar. Bunday usul ularda diplomatsiya qilish va diqqatini oshiradi.[12]

Beshinchi sinfdan boshlab o’quvchilar alohida daftar tutib, o’rganilayotgan qo’shiqlarning matnini yozib borishlari kerak. Undan oldingi boshlang’ich sinflarda matnni maxsus jadval-plakatlarga qarab yoki doskaga yozilgan matnga qarab o’rgatish lozim. Yuqori sinflarda tarqatma material sifatida bir necha kartochkalarga matn yozib olinadi va o’quvchilarga tarqatiladi. Bolalar esa uni ko’chirib olishadi va o’rganadi. Bu jarayonni kompyuter orqali ham o’rgatish hozirgi davr talablaridan biri. Qo’shiq matni uning kuy-ohangi bilan birgalikda o’zlashtiriladi. O’ynaylik omon, xalfa qo’shiqlari, mehnat qo’shiqlari yalla, terma janridagi qo’shiqlar shular jumlasidandir.

Qo’shiqning kuyini o’rgatish uning bandlari bilan birgalikda o’rganish jarayoni bilan bog’liq. Bu ish bolalarning ham, o’qituvchining ham diqqat e’tiborini talab etadi. Kuyni o’rgatish oldidan uni biror musiqa asbobida chalib, qo’shiqning birinchi bandini aytib yoki turli texnik vositalardan video, audio yozuvlaridan foydalagan holda bolalarga eslatib o’tish kerak.

O’qituvchi har bir bandni faollik bilan ijro qilib beradi (2-3 marta) undan keyin bolalar bilan birgalikda ma’lum sur’atda ohangi bilan qo’shiqni kuylashni bolalardan talab qiladi. Odatda bolalar dastlab qo’shiqni dadil ayta olmaydilar, ammo bir necha bor takrorlash tufayli tobora dadil aytadigan bo’lishadi. Bordi-yu o’rganilayotgan tartib bolalarga yetarli darajada tushunarli bo’lmasa, uni takror yana bir marta cholg’u asbobida chalib qo’shiq aytib beriladi, lekin uzoq to’xtalib qolmaslik lozim. Chunki, bu vaqtda bolalarning diqqati zaiflashadi, shu sababli ular passivlashib qolishadi. Qo’shiqning qiyin joylarini alohida o’rgatish yaxshi natija beradi.

Mahalliy uslublarga xos qiyin ijro qilinadigan qo’shiqlar ham katta sinflarda o’rgatiladi. Ayniqsa,oltinchi sinf o’quv dasturidan o’rin olgan qo’shiqlar o’quvchilardan oldin egallagan bilim va ko’nikmalar xotimasini

[12] Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi T.2008, 25-bet

ko’rsatadi. Bu sinfdagi qo’shiqlar o’zining xilma-xilligi va murakkabligi bilan farqlidir. yettinchi sinfda barcha vohalarga xos musiqiy janrlar o’zlashtiriladi, uchinchi va to’rtinchi chorakda esa barcha vohalar, mahalliy uslublarga xos kasbiy musiqa, maqom yo’llari bilan tanishuv va ularga maqsadli musiqiy namunalar o’rganiladi.

Xususan, Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslubiga xos janrlardan cholg’u musiqa, mehnat qo’shiqlari,lola sayli qo’shiqlari, bahor mavsum marosim qo’shiqlari va baxshichilik san’ati bilan birgalikda alohida cho’pon qo’shiqlari o’rin olgan.[13]

Buxoro Samarqand mahalliy uslubiga xos janrlardan “Bog’bon qiz”, qarsak janri, “Besh qarsak” qo’shig’i, “Yallachilik san’ati”, “Buy-buy” qo’shig’i, “Dilbar”, Mavrigi qo’shig’i, Buxorcha qo’shiqlari o’rganiladi.

yettinchi sinfda mahalliy uslublardan Xorazm va Farg’ona-Toshkent uslubiga xos qo’shiq va kuylar o’rganiladi. Har bir voha va xududning o’ziga xos tomonlarini namoyon qilish uchun o’qituvchi kerakli va yetarli tarixiy va badiiy ma’lumotga ega bo’lishi shart. Shu bilan birgalikda har bir voha ijro uslubi, janrlarni tarkibini to’liq tushuntirib berishi lozim. Yashab turgan xududni imkoniyatlaridan kengroq va chuqurroq foydalangan holda bilim va ko’nikmalarni o’quvchilarda hosil qilish ta’lim jarayonining bir yo’nalishi Xorazm vohasiga mansub janrlar va ular tarkibidagi qo’shiqlarni o’rgatish, shu vohada yashab kelayotgan o’quvchi bolalar uchun juda tez va yengil bo’ladi. Chunki, o’quvchilar o’z vohasida yashab ijod qilayotgan ohangda va xonandalar, ijro uslubi ohang-yo’nalishi va janrlarni turlari juda yaqin.

Xorazm vohasiga xos qo’shiqlar, lapar, xalfa janri, raqs kuylari doston va ashulalari o’quvchilarga o’zlashtirish jarayonida unchalik qiyin kechmaydi, chunki ular doimiy ravishda to’y-tomosha va bayramlarda, qolaversa radio,televidenie va turli yozuv texnik vositalarda tinglab tomosha qilib kelinadi. O’quv dasturidagi “Lazgi” raqsi kuyi, “nima-nima deysiz”, “oxtoroman”,

[13] Ibragimov O., Sadirov J. Musiqa 7-sinf uchun darslik T.2008, 62-bet

“pardevol” laparlari, “ovozing sani” doston yo’llaridan Ufori ganji qorabog’ kuyi, xalfa qo’shiqlaridan “targ’uncha”, “uyalaman”, “ey, mehribonim” qo’shiqlarini o’rganish bilan birgalikda qo’shimcha, xalq orasida keng tarqalgan qo’shiqlarni ham o’rgatish mumkin.

Farg’ona-Toshkent mahalliy uslubiga xos qo’shiqlar qatoriga “xoy yalli”, “Ayajon”, “yallama yorim”, “chamanda gul”, “yumalab-yumalab” kabi yallachilik san’atiga xos qo’shiqlar o’quvchilar tomonidan juda qiziqish bilan o’rganiladi. O’quvchilarning dasturda belgilangan qo’shiqlardan tashqari mavzuga asoslangan holda istagan qo’shiq yoki ashulani sinfdan tashqari mashg’ulotlarda o’rgatish mumkin. Bu vohaga xos janrlardan cholg’u musiqasi, yallachilik san’ati, xalq ashulalari, katta janri va ustoz san’atkorlar tomonidan ijro qilingan Farg’ona-Toshkent maqom yo’llari va ular asosida yaratilgan ashulalar (Guluzorim, Bazrgoniy)

Qo’shiq o’rgatish jarayonida har xil usuldan foydalanish zarur. Har bir sinfda xushovoz, ba’zan esa musiqaga juda qobiliyatli bolalar bo’lishi tabiiydir. Ular qo’shiq ohangini o’rganishda o’qituvchining yordamchilari bo’lishi mumkin. O’qituvchi ayrim tarkibni o’rgatar ekan birinchi navbatda musiqa o’qish qobiliyati yaxshi bo’lgan o’quvchidan yordam berib takrorlashni talab qiladi. Shuningdek, musiqaga qobiliyati bo’lgan o’quvchilar guruhini alohida ajratib qo’ygan holda qo’shiq o’rganish va o’zlashtirishnitez sur’at bilan davom ettirish natija beradi. O’quvchilar orasida musobaqa uyushtirgandek bo’lib, qatorma-qator qo’shiq kuylatish uslubini ham qo’llaniladi va bu metod qo’shiq ohangini qanchalik o’zlashtirganligini tekshirib ko’rish imkonini beradi.

Bolalar o’z xalq qo’shiqlarini qanchalik e’zozlab, avaylab qadr-qimmatiga yetib kuylansa, shunchalik boshqa xalqlar qo’shiqlarini ham qadrlashni o’rganiladi. Chunki, o’zbek xalq qo’shiqlari asrlar osha sayqallanib, xalqimizning turmush tarzi, mehnat faoliyati va turli bayram marosimlari bilan bog’liq holda shakllangan va musiqa madaniyatimizning va ma’naviyatimizning bir bo’lagi sifatida namoyon bo’ladi.

Xalq qo’shiqlari, xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog’liq holda, paydo bo’lgan va rivojlanib kelayotgan qadimiy san’at turlaridan biri va o’lmas meros.

Musiqiy namunalarini idroklash va ijro etish uchun kasbiy musiqachilarga zarur bo’lgan va ko’p yillik “ustoz-shogird” maktabida o’rganilgan maxsus malakalar bo’lishi talab etilmaydi. Xalq musiqasi qiymatini kamsitmagan holda uni asl ma’noda xalchil ekanligini fahmlash zarur. Aytaylik, dostonlarni faqat baxshilar, maqomlarni esa ustoz maqomchilargina mukammal darajada ijro eta oladilar va kuylay olish imkoniga egadir.

Ta’lim jarayonida milliy musiqiy madaniyatimizning ulkan xazinasi bo’lgan qo’shiqchilik san’atining boy tarixini ijodkorlar xayoti va ijodini hamda ularning ijod mahsuli bo’lgan musiqiy namunalarini o’rganish muhim ahamiyatga egadir.

I - BOB BO’YICHA XULOSA

Yosh avlod vakillari o’tmishda yaratilgan merosni o’qib, ardoqlab, ijro etib, idrok qilib o’zlashtirsalar, zamonaga munosib san’atkor bo’lib yetishishlari mumkin.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov o’ziga xos ijrochilik uslubi, yorqin ijodiy yo’li orqali o’zbek va tojik kuylarini mohirona ijro etib, O’zbekistonda shuhrat qozongan hofizlardan biriga aylangandi.

Hoji Abdulaziz ajoyib dutorchi va hofiz sifatida ham shuhrat qozongan edi. Uning ajoyib ijro mahorati el arosida keng tarqaldi. Uning ijro qilgan asarlari juda ko’p bo’lib, eslab qolish qobiliyati juda baland edi. Ijrochilik bilan bir qatorda kuchli va shirali ovoz sohibi xonanda ham edi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov Shashmaqomlarning nasr qismidagi ashulalarni o’zbek va tojik tilida ravon ijro qila olgan va o’zi bastalagan “Bozurgoniy”, “Guluzorim”, “Beboqcha” kabi ashulalar xalq orasida mashhur bo’lib bugunki kunda ham xofizlar repertuaridan joy olgan.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov kabi san’at ijodkorlari yaratgan ashularani ularning ijro uslubini saqlab qolish va targ’ib qilish va yosh san’atkorlarga o’rgatish maqsadida ko’rik-tanlovlar o’tkazilmoqda. Shuningdek ta’lim tizimida milliy musiqa namoyondalar hayoti va ijodini o’rganish yaxshi yo’lga qo’yilgan.

Xalqimizning istiqlolga erishishi munosabati bilan azaliy qadriyatlarimizni tiklash, o’z tariximizni, milliy urf-odat va an’analarimizni, ma’naviy va shu jumladan badiiy merosimizni otroflicha o’rganish hamda undan bahramand bo’lish imkoniyati vujudga keldi.

O’zbek xalq og’zaki ijodi shu jumladan, xalq qo’shiqlari va ularning turlari uzoq davrlar davomida shakllangan bo’lib, ular xalqimizning turli sharoitlaridagi turfa marosimlar va boshqa shu kabi jarayonlar bilan uzviy bog’liq. Ular o’z zamonasini ijodiy mahsuli bo’lib, biz uchun o’tmishni tarixiy yodgorligi hamdir.

O’zbek musiqa merosini qatlamidan biri – o’zbek xalq musiqa ijodini o’rganish keyingi davrlarda yuzaga kelgan. Avvalambor bu merosni to’plash, uni mavjud bo’lgan ovoz taratish vositalariga yozib olish va nota yozuvlarida nashr etish zarur edi. Chunki, bu borada o’tmishdan qolgan yozma yodgorliklar nihoyatda oz bo’lib, ularning bori ham, asosan, o’rta asrlar davrida keng rivojlangan bo’lgan kasbiy musiqasiga taalluqlidir.

II-Bob Umumta’lim maktablari musiqa madaniyati darslarida Xoji Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishtirish uslublari

2.1 Umumta’lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida Xoji Abdulaziz Abdurasulov xayoti va ijodi bilan tanishtirish

O’zbek xalq musiqiy merosini milliy qadriyatlarimizning bir bo’lagi sifatida o’rganish hozirgi davrda dolzarb masalalardan biridir. O’zbek musiqiy merosimizga nazar tashlar ekanmiz, o’tmishda xalq ichidan yetishib chiqqan va

o’zlarining ijro mahoratlari, murabbiyliklari bilan xalq dilidan joy olgan san’atkorlarimiz ko’z o’ngimizda gavdalanadilar.

Qariyib 2000 yillik ko’xna tarixga ega bo’lgan ushbu sohada Barbod, Abu Nasr Farobiy, Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog’iy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changi kabi ulkan siymolar ijod qildi.

Ular musiqa nazariyasi va bastakorlik sohasida juda katta boy meros qoldirdi. Biroq arab istelosi davrida musiqaga oid yozma manbalar kuydirilib, yo’qotib yuborilgan. Shuning uchun ular yaratgan musiqiy asarlar bizgacha yetib kelmagan.

Lekin keyingi ming yillik tarixga oid yozma manbalar bizgacha yetib kelgan. O’rta asr musiqashunos olimlari musiqa nazariyasi va bastakorlik masalalari bo’yicha ko’proq Abu Nasr Farobiyning ”Musiqaga oid katta kitob”, “Musiqa haqida so’z”, Abu Ali Ibn Sinoning “Musiqa ilmi haqida risola”, “Kitobu ash-shifo” asarlarida musiqa ilmi va bastakorlik san’atiga berilgan ta’rifni asos qilib oladilar.

O’zbek xalqining donishmand shoiri va olimi Alisher Navoiy o’zining ”Xazoyin ul-maoniy”, “Xolati Pahlavon Muhammad”, “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida o’zidan oldin o’tgan buyuk musiqiy allomalarimizning musiqa ilmiy, bastakorlik an’analarini davom ettirib, boyitdi.

Musiqa ilmi XIII – XIV asrlarda yashab, ijod etgan olimlar – Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog’iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantirilgan[14].

Hoji Abdulaziz Abdurasulov(1852-1936) o’ziga xos ijrochilik uslubi, yorqin ijodiy yo’li orqali o’zbek va tojik kuylarini mohirona ijro etib, O’zbekistonda shuhrat qozongan hofizlardan biriga aylangandi.

Abdulaziz Abdurasulov 1852 yilda Samarqandda tug’ilgan. Uning otasi to’quvchilik bilan shug’ullansa-da, ustaxonasiga ashulachi va sozandalar tez-tez

[14] Tursunov R. Bastakorlar ijodi T., 2008 6-8 bet

yig’ilib turardi. Shu sababli yosh Abdulaziz ularning ashulalarini uyida eshitish imkoniyatiga ega edi.Hoji Abdulaziz Abdurasulov 9 yoshida maktabga boradi va 15 yoshiga qadar o’qiydi. 1867 yilda, otasining vafotidan so’ng Xaymardagi solihchining uyida kotiblik qiladi.

Abdulaziz yoshlik chog’idayoq klassik shoirlar Fuzuliy, Jomiy, Navoiy, Bedil va boshqalarning ijodi bilan tanishadi. O’rtoqlari bilan musiqachi, ashulachi va shoirlar ishtirok etadigan kechalarga tez-tez borar, Ramazon oyida Samarqandga kelgan atoqli Buxoro musiqachilarining ijrolarini tinglar edi. Abdulazizning shu vaqtlardan boshlab musiqaga bo’lgan havasi yanada oshadi. Mashhur tanburchi Xo’ja Rahimquldan tanbur chalishni o’rgana boshlaydi. Uning tanbur chalishni o’rganishga ishtiyoqi tasodifiy emas edi. Otajalol, Otag’iyos, Tillaboy va maqomlarni ijro etuvchilar ashulani tanburga jo’r bo’lib aytardilar.

Samarqandga kelib turadigan ashulachi va sozandalar ularning shogirdlari yoki doimiy tinglovchilari edi. Uch-to’rt yil davomida Xo’ja Rahimberdidan dars olgan Abdulaziz o’sha davrning mashhur ashulachisi Boruh bilan birga ashula aytadigan bo’ldi. Boruh o’zbek va tojik ashula san’atini, “Shashmqom”ni yaxshi bilardi va yoshi o’tib qolgan bo’lsa-da, ashulani yaxshi aytardi. Abdulaziz Boruh bilan birga O’zbekistonning shahar va qishloqlarida bo’ladi, asta-sekin uning cholg’u chalish va ashula aytish san’atini ham o’rganib oladi. U “Shashmaqom”ning safti va uforlarini, “Mushkulot”ning cholg’u bo’limidagi keng tarqalgan qismlarinigina aytar edi.

Keyinchalik u “Shashmaqom”ni mukammal o’rganishga, kuyning tuzilishini, qismlar o’rtasidagi munosabatlarini, tartibini tushunib olishga va avjlardan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsad bilan Abdulaziz 1880 yilda maqomlarning mashhur musiqachilari yashagan Buxoroga jo’naydi va u yerda Otajaloldan “Shashmaqom”ni o’rganib oladi.O’z shahriga qaytgach, Samarqand va uning atrofidagi qishloqlarda maqomlardan: “Iroq”, “Ushshoq”, “Nasrulloiy”, “Mustahzod” kabilardan parchalar ijro eta boshlaydi.

Abdulaziz 1887-1888 yillarda ziyoratchilar bilan Makkaga boradi. Keyinchalik 1907-1908-yillarda yana bir marta Haj safarida bo'ladi. Shundan so'ng uning ismi oldiga "hoji" so'zi qo'shib aytila boshlanadi.

Hoji Abdulaziz safarlari Sharq mamlakatlaridan Eron, Arabiston, Hindiston va Afg'oniston ashulachi va sozandalarining kuy va ashulalarini qiziqib tinglaydi. O'zi ham o'zbek kuy va ashulalaridan ularga ijro etib beradi. U shundan keyin o'z shogirdlari va yosh musiqachilarga boshqa mamlakatlarning musiqa madaniyati bilan tanishishni, o'rganishni, repertuarlarini ularning yaxshi asarlari bilan boyitishni maslahat beradi.

Hoji Abdulaziz asta-sekin an'analarga biroz yangicha yondashadi. Masalan, Buxoro va Samarqandda ashulalar odat bo'yicha tanbur jo'rligida aytilsa, Hoji Abdulaziz esa ana shu odatdan voz kechadi va maqomlarni dutorda chaladi. Shundan keyin sevimli cholg'u asbobi dutor hisoblangan joylar (Farg'ona, Toshkent)da ham maqomlarning keng tarqalishiga yordam beradi.

A.AbduAbdurasulovning mahorati ayniqsa, o'sha davrda tez rivojlandi va mashhur xalq musiqachilarining diqqatini ham o'ziga jalb etdi. Shu yillarda u xalq ashulachilari Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov va Mulla To'ychi Toshmuhammedovlar bilan tanishadi. Ular bilan birga respublikaning qishloq va shaharlarida berilgan konsertlarda qatnashadi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov atrofida Sh.Akromov, Qori Siroch va boshqa qobiliyatli yoshlar to'planadi. Abdulaziz Abdurasulov 1924 yilda yosh musiqachilardan konsert brigadasi tuzib, Samarqand va Buxoro atroflarida konsertlar beradi, o'zi ham xalq ashulalaridan parchalar aytadi.

1924 yili Samarqand pedagogika bilim yurtida musiqa to'garagi tashkil etiladi va u Qori Siroch bilan biga yoshlarga musiqa va ashula san'atini o'rgatadi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1928 yilda yirik musiqachi mutaxassislar qatorida Samarqanddagi musiqa va xoreografiya Ilmiy tekshirish institutiga ishga olinadi. Ana shu institut qoshida M.Ashrafiy, T.Sodiqov, M.Burhonov, D.Zokirov va boshqalar undan ta'lim olgan edilar.

Toshkentning atoqli musiqachisi Yunus Rajabiy u bilan birga to’rt yilga yaqin Buxoro musiqasini o’rganadi, “Shashmaqom”ning usullari va xilma-xil kuylari bilan tanishadi. Abdulaziz Abdurasulov pedagogik faoliyati bilangina chegaralanib qolmay, ijrochilik faoliyatini davom ettiradi va davrning ko’zga ko’ringan ashulachilari qatorida konsertlarda qatnashadi. Uning ovozi lirik tenor bo’lib, ko’proq o’rta registrda yaxshi jaranglar edi. Tovushi qanchalik kuchli va diapazoni katta bo’lishiga qaramay, xonanda sifatida undan mohirlik bilan foydalana olganligi tufayli ijrosi shirali chiqardi. U musiqaga qobiliyatli kishi bo’lganligi uchun ijro etadigan asarning avvalo mazmunini ochishga, uning badiiy obrazini gavdalantirishga intilardi.

Hoji Abdulaziz ajoyib dutorchi va hofiz sifatida ham shuhrat qozongan edi. Uning ajoyib mahorati haqida xalq orasida “u chaladigan dutorning pardasi yo’q”, degan iboralar yurardi. Uning repertuari 200dan ortiq asarlardan iborat edi. U ko’p maqomlarni tojik tilida va o’zi bastalagan “Bozurgoniy”, “Guluzorim”, “Beboqcha” kabi ashulalarini o’zbek tilida aytar edi. Hoji Abdulaziz ba’zi vaqtlarda tinglovchilarning talablariga ko’ra aynan o’sha ashulalarni o’zbek va tojik tillarida ijro etar edi.

Uning ashulachi va sozanda shogirdi Sharifxon Akromovning aytishicha, Abdulaziz Abdurasulov o’rganadigan asarlarni sinchiklab, har tomonlama o’ylab olar edi. Kuylarga she’rlarni o’zi tanlab, she’rdagi har bir so’zning ma’nosini va ahamiyatini anglashga harakat qilardi. U ashulaning ohang yo’lini saqlagani holda, uning so’zlarini, avjlarini, jo’r bo’lishini o’zgartirib, boshqa ijrochilar uchun odat bo’lmagan yo’li bilan asarni olti va yetti xil qilib ijro etar edi. Ba’zi ashulalarni erkin o’zgartirilgan avjlar qo’shish bilan uzaytirar edi.

Ashula va maqomlardan bir xillarini o’ziga xos ohangda ijro etgani uchun, bular uning nomi bilan aytiladigan bo’ldi. O’z ustozining ijro etish uslubini yaxshi bilgan Yunus Rajabiy: “Uning asosiy ijro etish uslubi improvizatsiyasi bilan bog’liq edi”, - deydi. 1909 yilda Abdulaziz Abdurasulov ijrosida Riga “Grammafon” firmasi “Iroq”, “Nasrulloiy”, “Ushshoq”larni yozib

olgan edi. 1930-1932- yillarda ashulachi Samarqand musiqa va xoreografiya institutida ishlagan vaqtida undan 20ga yaqin: “Iroq”, “Qashqarchai Iroq”, “Gulyor”, “Ufori Iroq”, “Orazi gulyor”, “Arzimni aytay” kabi o’zbek musiqasi durdonalari fonografga yozib olingan edi. 1933 yilda uning “Qashqarchai Ushshoq” ashulasi gramplastikaga yozib olindi.

Musiqachi hukumat tomonidan berilgan “O’zbekiston Respublikasi xalq artisti”, degan yuksak unvonni oqladi. Atoqli xalq ashulachisi va sozandasi nomi o’zbek xalqining tarixida abadiy saqlanib qoladi.

2.2 Pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi bilan tanishtirish uslublari

Umumta’lim maktabi 7-sinfida Musiqa madaniyati darslarida Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi bilan tanishtirishni innovatsion texnologiyalar asosida o’rgatish xozirgi kunda dars jarayonini mazmunli va qiziqarli olib borish hamda samarali natijalarga erishishda asosiy uslublardan biridir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va o’quvchi faoliyatiga yangilik kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda interaktiv metodlardan to’liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo’lib fikrlash deb yuritiladi.

Bu metodlarninig o’ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o’quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko’rsatishi bilan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyasi bilan bog’liq bo’lib qolmasdan, balki o’qitish jarayonida qo’llanilishi zarur bo’lgan O’zTV, kompyuter, turli texnikalardan foydalanish bilan belgilanadi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o’qituvchi va o’quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiya tushuniladi. Har bir dars, mavzu, o’quv faninig o’ziga xos texnologiyasi bo’lib, bir maqsadga yo’naltirilgan, oldindan

loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.[15]

Ta'lim texnologiyalrini loyihalashtirishda, biz uchun eng muhimi, o'quv jarayoning tartibi va rejimi emas, bu ikkinchi darajali. Bizni ko'proq, ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatimizning tashqi ifodasi sifatida, uning tashkiliy shakli qiziqtiradi.

Guruhlarda ishlash – ta'lim oluvchilarning faoliyatini tashkil qilishning shunday shakliki, u, o'quv guruhlarini, ma'lum bir vazifani ochish uchun, hamkorlikda, vaqtinchalik mikroguruhlarga ajratishni talab qiladi. Ta'lim oluvchilarga, qo'yilgan vazifaning mazmunini, uni yechish yo'llarinin va usullarini belgilshni muhokama qilish taklif qilinadi. Bunda ilgari surilayotgan takliflarni hamkorlikda baholash orqali ularni amalga oshirish, bajarilgan ishlarni birgalikda tahlil qilish, hamkorlikda topilgan natijani oldin shakllantirib, so'ngra taqdim yetish so'raladi.

Ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati tashkillashadi, bu esa, o'quv-bilish jarayonini faollashtirishga, ularda simpatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi:

- vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida, ta'lim oluvchilarda, o'rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo'ladi;
- ta'lim oluvchilar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarni shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni- argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir-birini diqqat bilan eshitishlari kerak;
- guruhlarda ishlash paytida, zarurati bo'lganda, ta'lim oluvchilar yordam berishlarini so'raydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar.

Ta'limning ushbu shakli, to'g'ri tashkil etilgan pedagogik rahbarlik va boshqaruv paytida, jamoatchilikning asosiy shartlarini amalga oshirishda

[15] Eshmuratov M. Innovatsion texnologiyalar. T.2011. 15-bet

ko’maklashadi, ya’ni: umumiy maqsadni anglashda, vazifalarni maqsadli taqsimlashda, o’zaro bog’liqlik va nazoratda.

Guruhlarda ishlash, atrofdagilarga bo’lgan munasabatni o’zgartiradi, “men va ular”dan “biz”ga o’tishni ta’minlaydi va o’zini guruhning bir bo’lagi sifatida hia qilish imkonini beradi.

Guruhda ishlashni rejalashtirishda nimalarga e’tibor berish kerak?

- Vaqtga:
- Mashg’ulot modelini tanlashga.
- Ish joyini tanlashga va tayorlashga.

Ta’lim oluvchilar o’z o’rtoqlarining ishini muhokama qilish paytida, ishchanlik ruhida tanqid qilishni o’rganishi kerak. Lekin, buning uchun, aniq va ob’ektiv mezonlar bo’lishi kerak. Ta’lim oluvchilarni va butun guruhning ishini tahlil qilish hamda baholsh imkoniyatini baholash tizimi zarur.

Vazifani bajarish davrida o’zlashtirilgan materiyallarga taaluqli testlarni tayorlab qo’yishingiz mumkin. Yoki har bir guruh, boshqalar ham materiyalning ushbu qismimi o’zlashtirganini aniqlash uchun savollar tayorlshi mumkin. Bunda, test topshirishga tayorgarlik paytida, guruh a’zolarining bir-birlariga yordam berishlariga ruxsat bering.

Yakun yasashda olingan ma’lumotlar va bilimlar hamda guruhda ishlashi to’g’risida tushuncha bo’lishi ham e’toborga olinishi kerak. Fikr-mulohazalar natijalar varaqasiga yozib boriladi.

Ish ugagandan so’ng, ta’lim oluvchilarbilan, ilar qhady ega bo’lagniklari, ish bo’yicha qandaynatijalar olganliklarini muhakama qiling. Ta’lim oluvchilar tajriba orttirgan sari, ko’proq, yana nimani o’ganishlari to’g’risida emas, balki o’rgangan narsalari to’g’risida gapira boshlaydilar.

Guruhning barcha a’zolarining yangi qarorlari va mulohazalarini qayd yetib o’ting. Har bir taklifni etarlicha muhokama qiling. Agar u, ijodiy(nostandart) bo’lsa, unga erishish uchun zarur bo’lgan barcha mahoratlarni sanab o’ting.

Ta’lim oluvchilar ishlayotgan vaqtda nima qilmoq kerak? Ta’lim oluvchilar guruhlarda ishlayatgan paytda, biz kuzatuvchi sifatida bo’lamiz. Lekin, bu paytda ta’lim oluvchilarga yordam berishingiz mumkin.

Betartiblikning oldini olishga harakat qiling:

- Biz doimo guruhlar ishini boshqarib turishimiz lozim: mavzudan chetga chiqish-ta’lim oluvchilar uchun tabiy hol;
- Guruh etakchilariga doim e’tibor qilib turing;
- Ta’lim oluvchilar, ish uchun zarur bo’lgan barcha materiyallardan foydalanish imkoniyatiga ega yekanligiga ishonch hosil qiling;
- Vazifani bajarish uchun etarlicha vaqt bilan ta’minlang;
- Barcha ta’lim oluvchilar bir holda haqqoniylik bilan baholanishini kuzatib boring;
- ruhlarda, natijalarni taqqoslash uchun vaqt ajrating;
- barcha o’quv guruhi uchun umumiy qoidani belgilang, har birini -guruh, o’zining siljishini o’zi rejalashtirishga ruxsat bering.

- Ta’lim oluvchilarning ishini borishi haqida fikringizni doimiy ravishda bildirib turing. Ularga yutuqlarini baholashga taaluqli aniq axborot bering. Xususan va xolisona tanqidiy fikr bildirishdan qo’rqmang. Biz uni, guruhdagi ishni bajarish paytida ham, uning ishiga yakun yasash paytida ham amalgam oshirishimiz kerak.

Guruhlar nazorat ostidan chiqib ketsa nima qilmoq kerak?

Guruhlarda ishning ketishini tekshiring va uni ta’lim oluvchilar bilan muhokama qiling. Bunday tartib-intizom sizni xavotiga solayatganini ayting. Ta’lim oluvchilarning qay biri, o’ziga ajratilgan vazifani bajarmayatganini ko’rsating.Vazifaning bajarilishi uchun barcha ma’sul yekanligini uqtiring. Agar auditoriyadagi umumiy tartib-qoidalari buzilsa, guruh a’zollari bu holni muhokama qilib, yachimimi topishlarini so’rang.

Yoki boshqa variyanti ham mavjud. Har bir guruhga, besh daqiqa kuzatuvchini tayinlang va ushbu kuzatuvchilar ko'rganlari haqida axborot beradilar. So'ngra, ushbu guruhdagi tartib-intizomni barcha bilan muhakama qiling. Guruhning ichida nizo paydo bo'lsa nima qilmoq kerak? Muhakama qilmang. Nima voqyea sodir bo'lganini guruhning o'zi tahlil qilib chiqishini va uning yechimini topishini so'rang. Yakun yasang.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy xamda murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulotda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondoshuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Shu bois ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan vazifalar doirasi kengayib bormoqda. Tabiiy ravishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan samarali va unumli foydalana olish vazifasi mazkur musiqa madaniyati mashg'ulolari oldiga ham qo'yilgandir.

Biz, aniq o'quv mashg'ulotlari misolida, dars berish va o'quv jarayonida guruhlarda ishlash usulidan qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatib beramiz va innovatsion texnologiyalarning ushbu metodlarini tahlil etamiz.

Kitob bilan ishlash texnologiyasi

Ushbu vazifa quyidagicha bajariladi:

- Konvertlarda o'zlarining belgisini chizadi;
- Savollarni yozadilar;
- Konvertni chap tomondagi qo'shnisiga uzatadi;
- O'ng tomondagi qo'shnisidan konvertni oladi, javobni varaqga yozadi, uni konvertga solib, chap tomondagi qo'shnisiga uzatadi.

Bunda, konvertning ichidagi javoblarni o’qish man yetiladi qoidasiga rioya qiladilar. Javoblar bilan tanishadilar.

Qo’yilgan savollarga jaoblar ularni qanchalik qoniqtirganligini aniqlaydilar. Guruh oldida o’z savollarini o’qiydilar. Unga o’rtoqlari taklif qilgan variyantlardan umumlashtirilgan javob beradilar. Guruhlarning vakillari savollar va javoblarni yig’ib oladilar, umumlashtiradilar. Umumlashtirilgan xulosani hammaga e’lon qilish lozim.

“Aqliy hujum” texnologiyasi

“Aqliy hujum”-jamoa bo’lib muhokama qilishning samarali metodidir. Unda biror muammoning yechimini topish barcha ishtirokchilarning fikrini yerkin ifodalash orqali amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum”ning tamoyili juda sodda. O’qituvchi o’quvchilar oldiga masalani qo’yadi va ushbu masalani yechish bo’yicha o’zlarining fikrlarini bayon qilishni so’raydi. Ushbu bosqichda hyech kimning boshqa ishtirokchilarning g’oyalari haqida o’z fikrini bildirishga yoki unga baho berishga haqqi yo’q.

“Aqliy hujum” yordamida bir necha daqiqa ichida o’nlab g’oyalarni olish mumkin. G’oyalar soni asosiy maqsad emas. G’oyalar eng to’g’ri yechimni ishlab chiqish uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

“Aqliy hujum”ning qoidalari quyidagilardir:

- taklif yetilayotgan g’oyalar baholanmaydi va tanqid qilinmaydi;
- ish g’oyalar sonini ko’paytirishga qaratilgan, g’oyalar qancha ko’p bo’lsa shuncha yaxshi;
- har qanday g’oyani kengaytirishga, rivojlantirishga harakat qilish mumkin;
- har bir g’oya yozib boriladi;
- aqliy hujum o’tkazish vaqti qat’iy o’rnatiladi va unga rioya qilinadi.

Aqliy hujum tugagandan so’ng takliflar tahlil qilinadi va ulardan eng qimmatlilari keyinchalik ular bilan ishlash uchun tanlab olinadi. Tahlil qilinganda avvalo taklifning foydalilik jihatlariga e’tiborni qaratish lozim.

“Rolli o’yinlar metodi” texnologiyasi

Rolli o’yinlar metodining mohiyati shundan iboratki, unda o’quvchilar boshqa kishining roliga kirib, uning “ichida” harakat qiladilar. O’yinda o’quvchilarga asosan tugallanmagan vaziyatlar beriladi. Ular qaror qabul qilishlari, munozarali holatlarni bartaraf yetishlari yoki taklif yetilgan vaziyatlarni nihoyasiga yetkazishlari kerak bo’ladi.

Rolli o’yinlar o’quvchilarda boshqalarni tushunish, ularga xayrxohlik qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Boshqalar rolini o’ynash orqali, o’zgalarning o’y-xayollarini tushunish oson. Rolli o’yinlar o’quvchilarga turli vaziyatlarda o’zini tuta bilishning modellarini berishi mumkin.

Darslarda rolli o’yinlarini qo’llash quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

1. O’yinli vaziyatni tanlash. Rolli o’yinlar uchun ko’plab materiallar mavjud. Ular individual qiyinchiliklarni (masalan, Internet xizmati provayderi bilan muloqot qilish) va muammoni hal qilish vaziyatlarini (masalan, dasturiy mahsulot buyurmachisi bilan bahs) o’z ichiga oladi. O’yinlar maxsus savollar yoki muammolarni hal yetishda qo’llanilishi mumkin. Masalan, yosh bolalarga Internet tarmog’ining barcha ma’lumotlariga kirishga ruxsat berish kerakmi yoki yo’qmi, degan savolga javob topishda o’yin metodidan foydalanish mumkin. Va nihoyat, o’yin jarayonida o’quvchilardan intervyu olish, muzokara olib borish, tadqiqot olib borish va qaror qabul qilish, o’zini himoya qila olish ko’nikmalari rivojlanadi.

2. Tayyorlash. O’quvchilar vaziyat yoki muammo bilan tanishadilar va ular o’rtasida rollar taqsimlanadi.

3. Ishtirokchilarni tanlash. O’qituvchi rolga o’quvchilarni o’zi tanlashi, guruhda o’zlari taqsimlashlariga imkon berishi yoki xohlovchilarni taklif

yetishi mumkin. Rolli o’yinlarda ishtirok etmayotgan o’quvchilar kuzatuvchi bo’lishlari yoki boshqa rolni o’ynashlari mumkin.

4. O’yinni o’tkazish. O’quvchilar o’yin doirasida o’zlarini tutish usulini o’zlari tanlaydilar. Bunda, albatta, Berilgan mvaziyatga tushganda inson o’zini qanday tutishi mumkinligi asos qilib olinadi. O’yinning borishiga o’qituvchi aralashmasigi lozim. Ayrim hollarda o’yin tugagandan keyin rollarni almashib, yana bir bor o’yin o’tkazish foydadan xoli bo’lmaydi.

5. Muhokama O’yin muhokama qilinishi va baholanishi kerak. Ishtirokchilar va kuzatuvchilar o’yinda bo’lib o’tgan voqyealarni va bu voqyealar nima uchun ro’y berganligini muho kama qilish va tahlil yetish imkoniyatlariga ega bo’lishlari lozim.

Muhokama uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

- Siz nimalarga o’rgandingiz?

-O’yin bo’yicha va har bir rol bo’yicha nimalarni his etayapsiz?

- O’yin hayotda ro’y beradigan vaziyatga nimasi bilan o’xshadi va nimasi bilan farq qildi?

muzokara olib borish, tadqiqot olib borish va qaror qabul qilish, o’zini himoya qila olish ko’nikmalari rivojlanadi.

- O’yin hayotda ro’y beradigan vaziyatga nimasi bilan o’xshadi va nimasi bilan farq qildi?

- Qo’yilgan masala hal etildimi?

- Agar boshqacha o’ynalganda nima bo’lar edi?

Tarmoqlar metodi (Klaster) texnologiyasi

Ushbu metod mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o’rgatishga qaratilgan. Biron-bir mavzuni chuqur o’rganishdan oldin o’quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi.



1. Katta o’lchamdagi qog’oz yoki doskaning o’rtasiga mavzuga doir so’z yoziladi.

2. O’quvchilar ushbu so’z bilan bog’liq xayolga kelgan so’z va jumlalarni uni atrofiga yoza boshlaydilar.

3. Yangi g’oyalar paydo bo’lishi bilan xayolga kelgan so’zlar ham darhol yozib qo’yiladi.

4. So’zlarni yozish jarayoni o’qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so’z va g’oyalar tugaguncha davom etadi.

Klasterlarga ajratishda bir qator qoidalarga ham rioya qilish zarur.

1. Xayolga kelgan hamma narsani ularning mazmuniga e’tibor bermasdan yozib borish.

2. Orfografiya va boshqa omillarga e’tibor bermaslik.

3. Vaqt tugaguncha, iloji boricha to’xtalmasdan yozish.

4. Iloji boricha ko’proq bog’lanishlar hosil qilishga harakat qilish.

5. G’oyalar va so’zlar sonini cheklab qo’ymaslik.

Quyida misol sifatida “Axborot” tushunchasini o’rganishda qo’llaniladigan klaster berilgan. Uni dars jarayonida yanada to’ldirish va kengaytirish mumkin.

Umumta’lim maktabda har xil qo’shiq, ashula o’rgatish va ijro etish musiqa tarbiyasining asosiy shakllaridan biri, hamda musiqa savodi va musiqa tinglash faoliyatining zaminidir.

Musiqa o’qituvchisi umumiy ta’lim maktabning har bir sinfida o’rganish uchun tavsiya qilinayotgan qo’shiq, ashulalarni puxta o’ylab rejasini tuzishi lozim. O’rganiladigan asarlar qatoriga kiritilgan qo’shiqlar g’oyaviy-baliiy qiymatga ega bo’lib, o’quvchi bolalarga tushunarli va mavzu jihatdan xilma xil bo’lmog’i lozim.

Bu qo’shiqlarni hammasi bolalarni o’z vataniga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalashga musiqa va qo’shiqlarimizga ular mavzusida aks ettirilgan qahramonlar bilan fikrlanishga, hamdard bo’lishga va o’ziga xos xulosa yuritishga o’rgatadi.

Bolalar o’z xalq qo’shiqlarini va ularning turlarini qancha keng va ko’p o’rganishsa, ular xalq meroslarini yanada qadrlab ularning asl maqsadlarini o’rganishadi. Ularni o’rgatishda shu narsaga e’tibor berib intilish kerakki, bolalar sinfda o’rganib ketgan qo’shiqlarni har yoqlama ta’sirli qilib ijro qila oladigan bo’lsin. Bu esa qo’shiqning qanday o’rgatilganligiga, o’qituvchining qo’shiqdagi badiiy obrazni nechog’lik ishonarli qilib ochib bera olmaganligiga bog’liq.

Har bir qo’shiqni mavzu bilan bog’lagan holda eng oddiysini ham juda sinchiklab tahlil etish, uning mazmuniga e’tibor berib bilib olish va musiqada shu mazmunning qanday ifoda vositalari bilan aks ettirilganini aniqlab o’rgatish zarur. Butun q o’shiqni ijro etish rejasi oldindan begilab olinadi. O’qituvchining darsda o’tkazadigan suhbatlarining mazmuni, ya’ni qo’shiqning asosiy sur’ati (ritmi) va undagi chetlanishlar, rang-barangliklar, o’lchovi, ohang yo’nalishlari, dinamik tuslar, tovush xususiyatlari o’ylanib chiqiladi. .

O’qituvchi qo’shiqning murakkab o’rinlarini aniqlagach, ularni o’rgatishni osonlashtiradigan vositalarni topa oladi. Masalan: bu murakkabliklar intonatsiya qiyinchiliklaridan iborat yordamchi mashqlar tuziladi.

Qo’shiq o’rgatish jarayonining bir necha asosiy paytlari bor.

1.O’qituvchining o’zi mavzu bilan bog’langan holda qo’shiq ijro etishi

2. Mavzu asosida suhbat o’tkazish, tarixiy kelib chiqishi

3. Qo’shiq matnini o’rgatish jarayoni

4. Qo’shiqni kuy ohangini yodlab o’rganish

5. Mavzunm va o’rganilgan qo’shiqni mustahkamlash

6. Qo’shiqni badiiy ijrosi ustida ishlash

Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi va ijro uslubi O’zbek xalq musiqa ijodi va milliy mumtoz musiqa merosi, shu jumladan maqomlarijrosi bilan bog’liq. Ular negizida yaratilgan yirik musiqiy namunalar xozirgacha o’zining ba’diiy va estetik imkoniyatlarini yuqori darajada saqlab kelayotganini ta’qidlaymiz. Ularni munosib o’rganish, tadqiq etish va kelajak avlodga yetkazish zamonamizning talab ehtiyojida bo’lgan dolzarb masalalardan biri.

Fan-texnikaning taraqqiyoti informatsion va innovatsion texnologiyalar, ijodiy qobiliyat va tafakkurlarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratmokda. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo’yiladigan muhim talablardan biri - ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, kisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Buning uchun quyidagilarni e’tiborga olib, faoliyat ko’rsatmoq lozim:

-Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan xabardor bo’lish.

-Pedagogik va innovatsion texnologiyalarni amapiyotga tadbiq eta olish “Skarabey” texnologiyasi o’quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi[16]. Chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o’quvchilar tomonidan Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi va ijro

[16]. Tolipova M. Pedagogik texnologiyalar T., 2007

uslubi mavzusini o’zlashtirish asosida, o’zi egallagan tajribasidan foydalanyshni ko’zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o’tkazish imkoniyatlariga ega.[17]

O’yin qoidasi

1-guruh		2-guruh
Gulizorim		Nasrulloiy
Beboqcha		Giryo
Qo’shchinor		Bazrgoniy

“Skarabey” interaktiv texnologiya bo’lib, o’quvchilarda fikriy bog’liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. qandaydir muammoni hal qilishda o’z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o’quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o’rgatilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi.

“Skarabey” usuli:

O’tilgan mavzuni takrorlab, mustahkamlash. Ikki guruhda ishlash.

O’quvchilarga kartochkalar tarqatiladi. Ularda bir nechta asarlar nomi yozilgan. Har bir guruh bir-biriga kartochkalarda yozilgan asar nomini aytmasdan, kuylab yoki cholg’u asbobida chalib, qo’l xarakatlari bilan ko’rsatib beradilar. Guruhlar asar nomini topib, davom ettirishlari kerak. Asarlar nomini ko’proq to’g’ri topgan, ko’rsatgan, ijro etgan guruxlar g’olib, deb sanaladi.

“Skarabey” - interaktiv texnologiya bo’lib, o’quvchilarda fikriy og’liqlik, mantiq, xotiraning rivojpanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o’z fikrini ochik va erkin ifodapash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o’quvchilarga mustaqil ravishda bilimning

[17] Yarashev J.T Musiqa madaniyati darsida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash /To‘plam/ Buxoro 2013 83-bet

sifati va saviyasini xolis baxolash, o’rgatilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda, turli g’oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog’liklarni aniqlashga imkon yaratadi

II- BOB BO’YICHA XULOSA

O’zbek xalq musiqiy merosini milliy qadriyatlarimizning bir bo’lagi sifatida o’rganish hozirgi davrda dolzarb masalalardan biridir. O’zbek musiqiy merosimizga nazar tashlar ekanmiz, o’tmishda xalq ichidan yetishib chiqqan va o’zlarining ijro mahoratlari, murabbiyliklari bilan xalq dilidan joy olgan san’atkorlarimiz ko’z o’ngimizda gavdalanadilar.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov o’ziga xos ijrochilik uslubi, yorqin ijodiy yo’li orqali o’zbek va tojik kuylarini mohirona ijro etib, O’zbekistonda shuhrat qozongan hofizlardan biriga aylangandi. Uning ijro qilgan asarlari juda ko’p bo’lib, eslab qolish qobiliyati juda baland edi. Ijrochilik bilan bir qatorda kuchli va shirali ovoz sohibi xonanda ham edi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov Shashmaqomlarning nasr qismidagi ashulalarni o’zbek va tojik tilida ravon ijro qila olgan va o’zi bastalagan “Bozurgoniy”, “Guluzorim”, “Beboqcha” kabi ashulalar xalq orasida mashhur bo’lib bugunki kunda ham xofizlar repertuaridan joy olgan.

Hoji Abdulaziz asta-sekin an’analarga biroz yangicha yondashadi. Masalan, Buxoro va Samarqandda ashulalar odat bo’yicha tanbur jo’rligida aytilsa, Hoji Abdulaziz esa ana shu odatdan voz kechadi va maqomlarni dutorda chaladi. Shundan keyin sevimli cholg’u asbobi dutor hisoblangan joylar (Farg’ona, Toshkent)da ham maqomlarning keng tarqalishiga yordam beradi.

Xoji Abdulaziz AbduAbdurasulovning mahorati ayniqsa, o’sha davrda tez rivojlandi va mashhur xalq musiqachilarining diqqatini ham o’ziga jalb etdi. Ashula va maqomlardan bir xillarini o’ziga xos ohangda ijro etgani uchun, bular uning nomi bilan aytiladigan bo’ldi.

Umumta’lim maktabi 7-sinfida Musiqa madaniyati darslarida Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi bilan tanishtirishni innovatsion texnologiyalar asosida o’rgatish dars samaradorligini oshirish maqsadida qo’llaniladi.

Bu metodlarninig o’ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o’quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko’rsatishi bilan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyasi bilan bog’liq bo’lib qolmasdan, balki o’qitish jarayonida qo’llanilishi zarur bo’lgan O’zTV, kompyuter, turli texnikalardan foydalanish bilan belgilanadi.

UMUMIY XULOSA

Mamlakatimizda komil inson shaxsini shakllantirish davlat siyosatining ustivor yo’nalishiga aylangan hozirgi sharoitda ma’naviyatimizning ajralmas qismi bo’lgan musiqiy madaniyatimizning o’rni beqiyosdir. Zero, musiqa, qo’shiq, har doim xalqimizning jon ozig’i bo’lib kelgan.

O’quv dasturlar asosidagi darsliklar o’quvchilarga ko’p asrlik musiqa an’analarini o’rganishda yordam beradi va ularni qadriyatimiz qatorida e’zozlashga chorlaydi. Chunki, o’quvchilar ular yordamida o’zbek xalqining uzoq o’tmishdan buyon ijod etibturli vaziyat va davrlarda kuylab kelinayotgan qo’shiq va uning turlarini (yalla, mehnat aytimlari, laparlar) yaqindan o’rganadi, ma’naviy bahra oladilar.

O’zbek musiqa madaniyati qadimiy va rango-rang, ayni paytda, yangi zamon an’analarini o’zida mujassam etgan xolda rivoj topmokda. Bunda avvalo benazir xalq musiqa ijodi, mumtoz musiqa merosi, milliy bastakorlik, hozirgi zamon kompozitorlik ijodiyoti, shuningdek, xalq, havaskorlik xamda jo’shqin ommabop estrada san’ati kabi shaklan va usluban nihoyatda serjilo jabhalar namoyon bo’ladi.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizga, unitilayozgan, tarixan qadrli an’analarimizga bo’lgan e’tibor,

ularni yangidan isloh etish jarayoni, ustivor yo'nalish kasb etadi. Bog'chalardan tortib oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimlarida mazkur fan va bilimlarni o'qitishda muhim siyosiy vazifa sifatida qaralmog'i lozim deb topilgan.

Mustaqillikka erishgan kunimizda, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir.

Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuy-ohanglarda o'zining ajoyib, betakror badiiy in'ikosini topgan. Ajdodlarimiz bergan ta'riflardan biriga ko'ra, musiqa - inson ruhining ozig'idir. Binobarin, milliy musiqa ko'p asrlar davomida ajdodlarimiz boy ma'naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining sadolardagi jonli ifodasi va ayni paytda, yangi, buyuk davlat bunyodkori bo'lmish jamiyatimizning ruh, quvvati va jon ozig'idir.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov o'ziga xos yorqin ijodiy yo'li, ijrochilik uslubi, orqali kuylarini mohirona ijro etib, o'z davrining shuhrat qozongan hofizlardan biriga aylangandi.

Hoji Abdulaziz ajoyib dutorchi va hofiz sifatida ham shuhrat qozongan edi. Uning ajoyib ijro mahorati el arosida keng tarqaldi. Ijrochilik bilan bir qatorda kuchli va shirali ovoz sohibi xonanda ham edi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov Shashmaqomlarning nasr qismidagi ashulalarni o'zbek va tojik tilida ravon ijro qila olgan va o'zi bastalagan ashulalar xalq orasida mashhur bo'lib bugunki kunda ham xofizlar repertuaridan joy olgan.

Hoji Abdulaziz asta-sekin an'analarga biroz yangicha yondashadi. Masalan, Buxoro va Samarqandda ashulalar odat bo'yicha tanbur jo'rligida

aytilsa, Hoji Abdulaziz esa ana shu odatdan voz kechadi va maqomlarni dutorda chaladi.

Umumta'lim maktabi 7-sinfida Musiqa madaniyati darslarida Xoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi bilan tanishtirishni innovatsion texnologiyalar asosida o'rgatish xozirgi zamon dolzarb vazifalardan biri.

Bu metodlarninig o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi bilan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan O'zTV, kompyuter, turli texnikalardan foydalanish bilan belgilanadi.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy xamda murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulotda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondoshuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Mustaqillik yillari o'zbek an'anaviy musiqasiga e'tibor yanada kuchaydi. Milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar va marosimlarning tiklanishi musiqa sohasida ham ancha o'zgarishlarga olib keldi. Qadimiy milliy musiqamizdagi boy badiiy-tasviriy vositalar bilan bir qatorda, yangi janr va turlarini o'zlashtirish natijasida o'zbek musiqa san'ati yana ham yuksak darajaga ko'tarildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Karimov I.A Ma’naviy yuksalish yo’lida T.1992

2.Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat T.1994

3.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.2008

4.DTS va o’quv dasturi 6 maxsus son.T.1999

5.Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari to’plami T. 2006

6.Abdullaev R. O’zbek mumtoz musiqasi T.2008

7.Akborov I.A. Kon Yu.O’zbek xalq musiqasi /Xorazm qo’shiqlari./ T.1960

8.Ibraximov O. Musiqa ijodiyoti masalalari T. 2002

9.Ibraximov O.Sadirov J. Musiqa 7-sirf uchun darslik T.2008

10.Karomatov F.K. O’zbek cholg’u musikasi T.1972

11.Mamadoliev F. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari T.2001

12.Matyoqubov O.Maqomat T.2004

13.Matyoqubov O. Baltaev R. Aminov X. Xorazm tanbur chizig’i T. 2010

14.Matyaqubov B. Doston navolari T.2008

15.Mannopov S.O’zbek xalq musiqa madaniyati T.2004

16.Mamirov K. Uzluksiz ta’lim tizimida musiqa fanlarini o’qitish masalasi T.2009

17.Matyokubov O., Boltaev R., Aminov X. O’zbek notasi. I.2009

18.Nurmatov X.Ibraximov O. Musiqa 6-sinf uchun qo’llanma T.1997

19.Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir T.1963

20.Rajabov I. Maqomlar T.2006

21.Rajabov I. Maqom asoslari T.1992

22. Raximov B. Musiqa tarixi (ma’ruza matni) Ur. 2005

23. Salomonova T. Uzbek musiqasi tarixi T. 1981

24. Tolipov U. Pedagogik texnologiyalar T. 2005

25. Tursunov R. O’zbek bastakorlar ijodi T.

25. Eshmuratov M. Innovatsion texnologiyalar. T.2011

26. Yunusuov R. O’zbek xalq musiqa ijodi I-qism T. 1999
27.Yunusov R. O’zbek xalq musiqa ijodi 2-qism T.2000
28.Yunus Rajabiy O’zbek xalq musiqasi V tom. T.1959
29.Yusupov M. (Akbarov I.A. tahriri ostida) Xorazm maqomlari T.1986
30.Yusupova M. Ibroximov O., Yafasova E.Sharq taronalari T.2007
31.Shashmaqom saboqlari (birinchi to’plam) T. 2005
32. Shashmaqom saboqlari (ikkinchi to’plam) T. 2005
33. Shashmaqom saboqlari (uchinchi to’plam) T. 2006

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpu-intranet. ped
6.belkanto.ru,

ILOVA



XOJI ABDULAZIZ ABDURASULOV



SHASHMAQOM BILIMDONI OTA JALOL NOSIROV



SHASHMAQOM BILIMDONI OTA G’IYOS ABDULLAYEV



MAQOM ANSAMBLI



MUMTOZ MUSIQA IJROCHILARI

BOZURGONIY

M.M. ♩=120-126

Xalq so‘zi




(ox, yo - rey, ay - na - la - man o‘r - gi - la - man - o)
a - ning has - ra - ti - da xi - ro - shi - dur.
(o ox, ox, ox, o o
no - za - ni - na - me).
Ke - cha - lar xa - yo - li - da
uy - g‘o - nib, cha - la jon i - lon ka - bi
to‘l - g‘o - nib, che - kib o - x(u) - lar a - ning
ish - qi - da, na - za - rim - da hus - ni
qu - yo - shi - dur (o o
Di - li - jo - ni - ma ne - cha ming a - zob (yor),
g‘a - mi haj - ri - da che - kib iz - ti - rob, (o
o


Ka-ram o‘r - ni - ga qi - la - dur i - tob, (o‘r - gi - la - ma - no)
La - bi - ning sha - ro - bi - ni ich - gan el, (o‘r - gi - la - ma - no)
men - ga ra - hm - siz di - li to - shi - dur.
bi - la - yol - mas o‘ - zi - ni o - yu yil,
E - mas o‘l ba - ho - ri - da mav - ju sel (o‘r - gi - la - ma - no)
ki bu o - shiq ah - li - ni yo - shi - dur.
(oh yo - rey ay - na - la - man, o‘r - gi - la - ma - no).
Ki bu o - shiq ah - li - ni yo - shi - dur.
(o ox, ox, ox, o) o
no - za - ni - na - mo)
ox, yo - rey.

BEBOKCHA

M.M. ♩=63-66

Fuzliy she'ri




xok ich-ra bir si - min u-zor, Bo'l-g'u-si har
kim-sa-ya bo'l - sa ni-go - xing e' - ti-bor,
O-chi-lan gul - lar-mi-dur yer uz-ra har fas - li ba-hor, (ey
e - - e - - e - jo - ney),
Yo-fa-no dash - ti-da xok o'l-g'an pa-rir o' - lar-mi-dur (ey qur -
- bo - ning-ma- ney). Yo - fa-no dash-ti - da xok o'l - g'an pa-ri -
ro' lar-mi-dur (ey xon jo- ney).
Qo-ma-ting shav -
qin-da sham - sho du sa-nu - bar - dur g'u-lom,
Gul bu-ni no - ras-ta-sen bog'ich-ra, ey o - liy ma-qom(yo - ro -
- - hay, jo- noy), no - la ay - lar -
man-ga man - no-yi ru- xing - da sub-hu shom,


Ash- k(i) chash- mim - dur sa-ri zul-fing xa- yo - li -
-la mu-dom (ey, ey - - e - - e - jo - ney),
Yo du-zul - mish rash-ta - yi (ey)
mush-ki - na lo‘-lu-lar - mi-dur (ey jo- no - nim sa- ney), Yo du- zul -
- mish rish - ta-yi mush - ki - na lo‘ - lu - lar - mi - dur, (ey, xoy jo- ney).
Dar-ga-hing-da kim-ki bosh o - si - na-tosh qo‘y
mish yo-tur, De-ma tosh - kim, bo-shin os -
- ti - na qu-yosh qo‘y mish yo-tur, Ik - ki zul-fin
bir bi - ri - na (o)
Ik - ki zul-fin bir - bi - ri - na bosh tu-tosh qo‘y -
mish yo-tur Ik - ki aj - dar dur - ki bir gan- j(ey)


uz - ra bosh qo‘y - mish yo - tur, (ey do - dey), Yo mu- sal - las
o - ra - zing dav- rin - da-gi su lar - mi-dur(ey, hay, jo - nim sa- ney),
Yo mu- sal - sal o - ra-zing dav - rin - da-gi su - lar - mi-dur (ey,
hay, jo - ney).